

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

K. X. MADUMAROV, A. A. NORQULOV

TEXNIK CHIZMACHILIK

YIG'MA BIRLIK CHIZMALARINI O'QISH VA
DETALLASHTIRISH UCHUN
CHIZMALAR ALBOMI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

9- nashri

„O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2017

UO‘K: 74(075)
KBK 30.11ya722
M14

Taqrizchilar: ***N.Boyboboyev*** — To‘raqo‘rg‘on qishloq xo‘jaligi kasb-hunar kolleji direktori, t.f.d., prof.,
R.Rustamov — NamPI mashinasozlik fakulteti dekani, t.f.n., dots.

Qo‘llanmada yig‘ish chizmalarini o‘qish va detallashtirishga oid topshiriqlarni bajarish hamda nazorat savollariga javob tayyorlash jarayonida konstruktorlik hujjatlari va ularni to‘ldirish, chizma chizish nazariy asoslari, aksonometrik proyeksiyalar, buyumning tasviri, rezbali detallar va ularning birikmalari, detallar eskizini va ish chizmasini tuzish kabi ma’lumotlar yoritilgan.

Qo‘llanma kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, undan oliy o‘quv yurtlari talabalari va ilmiy xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

KIRISH

Sanoatning aniq sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda o'quvchilarning kelajakda ish olib borishiga to'g'ri keladigan texnik qu'rilmalar bo'yicha grafik savodxon bo'lishlarini hisobga olish kerak.

Shunday masalani qo'yish aniq soha texnikasi bo'yicha chizma va sxemalarni rasmiylashtirishda qator standartlarni chuqur o'rganishni talab etadi. Ushbu masalaning hayotiy zarurligi barcha mutaxassisliklar uchun grafiqa fanlarining o'quv rejasi va qisqartirilgan o'quv soatlarida keltiriladi.

Albomdagi buyumlar chizmalarini turli radio asbob-uskunalari va elektr apparatlar, murakkab kuzatish va nazorat asboblari, boshqarish tizimlarida ishlataladi. Ushbu chizmalar albomi kasb-hunar kollejlari uchun tuzilgan dastur asosida yozilgan.

Qo'llanmada keltirilgan yig'ma birliklar sanoatning dastgoh ishlab chiqarish, kemasozlik, avtomobilsozlik, samolyotsozlik va boshqa sohalarida qo'llaniladi.

Radiotexnika, hisoblash texnikasi, avtomatika, telemekanika va boshqa asbobsozlik sanoati sohalaridagi buyum hamda qurilmalar o'ziga xos tuzilishga ega. Gabarit o'lchamlari uncha katta bo'limgan bu buyumlarning detallari ko'p sonli bo'lib, murakkablik darajasi yuqori va har xil materiallardan turli texnologik operatsiyalar yordamida (bosim bilan tekshirish, changlatish, egish va boshq.) tanlangan. Bunday detallarning biriktirilishi mashinasozlikda qabul qilinganidan farq qiladi.

Radiotexnika va asbobsozlikda buyumni detallashtirishda detallarni qirqimda, mayda vintli prujinalarni ko'ndalang qirqimda, bir o'ramli chulg'amni bo'ylama qirqimda tasvirlashga to'g'ri keladi.

Albomdagi chizmalar murakkablik darajasining oshib borishi tartibida joylashtirilgan va ikkita guruhga bo'lingan: birinchi guruh (01 raqam) o'rtacha murakkablikdagi chizmani, ikkinchi guruh (02 raqam) bir nechta katta murakkablikdagi chizmalarni o'z ichiga oladi.

Har bir yig'ish chizmasiga oid topshiriqda ortogonal proyeksiyasini chizish hamda texnik rasm holida tasvirlash uchun detallar ko'rsatilgan.

Topshiriqni bajarish uchun berilgan yig'ish chizmasidan haqiqiy uzunligi ko'rsatilgan kesma tanlanadi va masshtabi aniqlanadi. Albomdagi chizmaning masshtabi quydagi formula yordamida topiladi:

$$M_1 = \frac{L}{L_1}.$$

Bu yerda: L – yig'ish chizmasidagi tanlangan kesma uzunligi qiymati; L_1 – yig'ish chizmasidagi tanlangan kesmaning haqiqiy uzunligi.

Berilgan yig'ish chizmasidagi boshqa har qanday tanlangan kesmaning haqiqiy uzunligi qiymati:

$$L_2 = M_1 \cdot L_3$$

bo'ladi.

Bu yerda: L_3 – yig'ish chizmasidagi boshqa har qanday tanlangan kesma uzunligi qiymati.


Detallashtirishda detal chizmasining masshtabi (masalan: M1: 2; M 1:5; M 2:1; M 2,5:1; M 4:1) tanlanadi va uning ortogonal proyeksiyasini chizishdagi kesma uzunligi qiymati:

$$L_4 = M \cdot L_2$$

bo'ladi.

Kesmaning o'rnida aylana yoki yoy radiuslari bo'lishi mumkin.

Vintosti uyasi va parchinmix, vintosti parmalanish chuqurligi va boshqa o'lchamlar GOST tomonidan qo'yilgan talab bo'yicha olinadi.



ROLIK

Roliklar maxsus shkaflarning ostki tayanch qismi sifatida ishlataladi. Buyum, asosan, uchta qismdan iborat: 1 – tovon, 2 – sharnir va 3 – rolik. Tovon taglikka payvandlangan. U St3 rusumli po'latdan tayyorlangan. Sharnir 2 o'q va skobadan tashkil topgan. Ular tegishlicha 10 va St3 rusumli po'latdan yasalgan. Rolikning tovon bilan sharnirli birikishi shkafni xohlagan tomonga siljitim imkonini beradi. Sharnir va rolikning bir-biriga ishqalanadigan yuzalariga maxsus moy surtilgan.

Rolikni yig'ish tartibi

Tagtovon taxtachaga dastaki elektr payvand yordamida payvandlab biriktiriladi. O'q va skoba ham payvandlanadi. Zoldirli podshipnik 6 sharnir o'qiga o'tqaziladi va o'q bilan birga tovon tagligiga o'rnatiladi. Sharnir tovon bilan vint 5 hamda shaybalar 7, 8 yordamida biriktiriladi.

Vint uchi zoldirdagi o'yiqqa erkin kirgani uchun zoldirning aylanishiga xalaqt bermaydi. Keyin rolik 3 skoba qulochchasiga kirgizib qo'yiladi, o'q 4 o'rnatiladi va shplint 9 yordamida qotirib qo'yiladi.

Savollar




1. Chizmada mahalliy qirqimlarni ko'rsating. Ulardan qachon foydalilanadi?
2. Qanday hollarda gorizontal, frontal va profil qirqimlarda kesuvchi tekisliklarning joylashishi belgilanmaydi va qirqimning o'ziga yozuvlar qo'yilmaydi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Vint 5 nima maqsadda ishlataladi?
5. Zoldirli podshipniklar qanday qilib shartli tasvirlanadi?
6. Spetsifikatsiya nima uchun xizmat qiladi?
7. Chizmada ko'rsatilgan payvand chokdagi shartli belgilanishning asl ma'nosi qanday?
8. Rolikning o'rnatish o'lchamlarini o'qiy olasizmi?
9. Podshipnik 6 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajariladi?
10. Skobaning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Tagtovon, taxtacha, skoba va detallar 3, 5 ning chizmalarini, tagtovonning texnik rasmini chizing.



SAQLAGICH TUTKICHI

Saqlagich o‘zgaruvchan tok tarmog‘ida elektrotexnik apparatni qisqa tutashishdan saqlash uchun ishlataladi.

Korpus 1 – armaturalangan plastmassa buyum. Vtulka, tok uzatkich va kontakt korpus armaturasini tashkil etuvchilardir. Ular LB 8 rusumli latundan tayyorlangan. Qopqoq 2 plastmassadan tayyorlanib, unga vtulka zinch o‘rnataladi.

Prujina 4 ta’sirida stakan 3 bosiladi, suyuqlanuvchan qo‘yma doim kontaktga tegib turadi. Kontaktga tok uzatuvchi sim payvandlangan, tok uzatkichdan esa kuchlanish tushiriladi. Su-

yuqlanuvchan qo‘ymani almashtirish uchun qopqoq 2 ni burab chiqarish va qo‘ymani almashtirish kerak.

Tutkichni yig‘ish tartibi

Korpus vtulka, tok uzatkich va kontaktni press-qolipga plastmassani bosib tayyorlanadi. Tok uzatkich oldindan vtulkaga kavsharlanadi. Press-qolipda tayyorlangan qopqoq 2 ichiga stakan 3 va prujina kirgiziladi. Korpus 1 ichiga birlashtiruvchi yarimmufta 5 qo‘yiladi. Keyin parmalab teshiklar ochiladi, unga shtiftlar zichlab kirgiziladi.

Tutkichga suyuqlanuvchan qo‘yma o‘rnataladi va qopqoq 2 burab mahkamlanadi.




Savollar

1. Bosh ko‘rinishda qanday qirqim bajarilgan?
2. Detal 1 qanday sirtlardan tashkil topgan?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Vint 5 da yo‘niq va rax qanday ko‘rsatilgan?
5. Detal 3 ning vazifasi nimalardan iborat?
6. Chizmada mahalliy qirqim qanday ko‘rsatilgan?
7. Qopqoqdagi chiqiqlar qirqimda nima uchun shtrixlanmagan?
8. Birlashtirish o‘lchamlari qanday o‘qiladi?
9. Qopqoq 2 ning eskizi qanday bajariladi?



Topshiriq

Qopqoq 2 va korpus 1 ning yig‘ish chizmalari, nostandard detallarning chizmalari va korpus 1 ning texnik rasmini chizing.



REOSTAT

Reostat kuchlanishni o'zgartiradigan asbob shkalalarini yoritish zanjirida ishlataladi.

Vint 4 buralganda vtulka 6 o'ngga yoki chapga vint bo'ylab siljiydi. Vtulka 6 ga St60 G rusumli prujina po'latdan tayyorlangan yugurdak 1 kiydirilgan. Yugurdakning uchlarida reostat spiraliga tiralgan ikkita kontakt bor. Kontaktlar 68 rusumli latundan yasalgan.

Spiral bo'ylab kontaktlar siljiganda sim 12 dagi zanjirda kuchlanish o'zgaradi. Xomutlar 3 ning rezbali teshiklariga vintlar yordamida klemmalari biriktiriladi.

Reostatni yig'ish tartibi


Vint 4 ga izolator 5 va vtulka 6 kiydiriladi. Vint 4 ning o'ng tomoniga shayba 11 va ikkinchi tomoniga izolator 5 kiydiriladi, keyin vint uchi yumaloqlanadi. Yugurdak 1 ga kontaktlar mahkamlanadi va vtulka 6 ga kiydiriladi. Sterjen 7 sopol naycha 8 ga BF-4 GOST 12172-74 yelimi bilan yelimlanadi. Keyin sim 12 dan spiral o'raladi, spiral uchlari xomut 3 larga (POS 40 GOST 21931-76 bo'yicha) kavsharlanadi. Xomutlar naycha atrofini qisib turadi va uchlari kavsharlanadi. Naycha 8 lar asos 2 ga vintlar 9 va prujinali shaybalar 10 yordamida mahkamlanadi.

Savollar

1. Berilgan chizmadagi har bir tasvir GOST 2.305-68 bo'yicha qanday ko'rinishga ega?
2. Chizmada mahalliy qirqimlar tasvirlanganmi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmaydigan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Tok o'tkazuvchi tizim detallari qaysilar?
5. Chizmada shartli tasvirlangan kavsharlashlar qaysilar?
6. Spetsifikatsiyadagi shartli belgilangan vint 9 ning asl ma'nosi qanday?
7. Detal 8 da faska qanday tasvirlangan?
8. Yelimlab biriktirilgan detallar qaysilar?
9. Reostatning tashqi o'lchamlari qanday o'qiladi?
10. Detal 3 ning eskizini qanday bajarasiz?

Topshiriq

Detallar 2, 4 – 6 va 8 ning chizmalari, asos 2 ning texnik rasmini chizing.



O'TKAZUVCHI

Turli radiotexnik apparatlarda o'tkazuvchi shtepselni tez ularash va uzish uchun ishlataladi. U korpus 2, qo'yma 1, izolator 3, qopqoq 4 dan iborat. Qo'yma 1 ikkita metall detaldan tashkil topgan: tashqi tomondan vtulka, ichkarisidan uya, ular plastmassa bilan qotirib mahkamlangan. Vtulka va uya L68 rusumli latundan yasalgan.

Shtepselni ularash uchun qopqoq 4 bo'shatiladi va uyaga shtepsel qo'yiladi. Uyada ikkita

o'yiq bo'lib, uni qisish orqali, uya bilan shtepsel orasida yaxshi kontakt hosil qilinadi. Uyaning chap uchiga tok manbayidan keladigan sim kavsharlangan. O'tkazuvchi asbob panelga to'rtta M12 vinti vositasida mahkamlangan.

O'tkazuvchini yig'ish tartibi


Press-qolipda tayyorlangan qo'yma korpus 2 ga bosib o'rnatiladi. Keyin korpusga izolator 3 bosib o'rnatiladi va korpusga qopqoq 4 burab mahkamlanadi.

Savollar

1. Chizmada ko'rsatilgan qirqimlar qanday nomlanadi?
2. Uyaning o'rta qismidagi ingichka chiziqli diagonallar nimani bildiradi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Kesuvchi $A - A$ tekislik qaysi detallarni kesadi?
5. O'tkazuvchining birlashtirish o'lchamlari qanday?
6. M16X1 rezbasini shartli belgilashning asl ma'nosini qanday?
7. Qaysi plastmassa detal armaturalangan. Plastmassaga armaturalarni mahkamlashning qanday afzalligi bor?
8. GOST 2.109-73 bo'yicha tartib raqamlar qanday joylashtiriladi?
9. Qaysi detallar tok o'tkazuvchi hisoblanadi?
10. Detal 2 ning eskizi qanday tartibda bajariladi?

Topshiriq

Qo'ymaning yig'ish chizmasi va hamma nostonstandart detallarning chizmalarini chizing.



KONTAKT

Kontakt har xil radioelektr asboblarda kuchlanishni olib kelish va olish uchun ishlataladi. Tarkibiy qismlari uchlik 1, o'zak 2, qotirib qo'ygich 3, qalpoqcha 4, bargcha 5, gaykalar 6 va 7 dan iborat. Uchlik 1 plastmassadan tayyorlangan, rezbali vtulka esa unga armaturalangan. Vtulka L68 rusumli latundan tayyorlangan.

Kontakt asbob taxtasiga qotirib qo'ygich 3 va qalpoqcha 4 bilan mahkamlanadi. Bargcha 5 ga o'tkazuvchi kavsharlanadi. Simning ikkinchi uchi, o'zakdagi $\varnothing 2$ mm li teshikka o'rnatilib, uchlik vtulkasi bilan qisib qo'yiladi. Kuchlanishni olish uchun sterjen uchidagi teshikka shtepsel o'rnatilgan.

Savollar

1. Bosh ko'rinishda qanday qirqim bajarilgan?
2. Qanday hollarda yarimko'rinish bilan yarimqirqimni bir tasvirda berishga ruxsat etiladi?
3. M va N nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Detal 3 qanday sirtlardan tashkil topgan?
5. Chizmada kesim bormi?
6. Chegara detallar tasviri qanday bajariladi?
7. Tok o'tkazuvchi tizim detallari qaysilar?
8. M8 rezba shartli belgisi yoyib o'qilganda qanday bo'ladi?
9. Moslamadagi armaturalangan detalni ko'rsating. Armatura bilan plastmassanining birikish mustahkamligi qanday?
10. Qotirib qo'ygich 3 eskizi qanday bajariladi?




Topshiriq

Uchlik 1 ning yig'ish chizmasi, nostandart detallarning chizmalari va uchlik 1 ning texnik rasmini chizing.

Kontaktni yig'ish tartibi

Uchlik 1 plastmassani vtulkaga press-qolipda zinchash yo'li bilan tayyorlanadi.

O'zak 2 ga gayka 7 oxirigacha burab krigiziladi, unga qotirib qo'ygich 3 kiygiziladi. Qotirib qo'ygichning boshqa tomoni panelning ovalsimon teshigiga o'rnatiladi, bu kontaktning o'z o'qi atrofida buralishiga imkon bermaydi. Taxtachaning orqa tomonida o'zak 2 ga qalpoqcha 4 kiydiriladi, u gayka 6 ga qisib qo'yiladi. Ikkinchi gayka 6 bilan bargcha 5 o'zak 2 ga mahkamlanadi.



SOPOL KONDENSATOR

Yarimo'zgaruvchan 2—25/150 sig'imli sopol kondensator radiotexnik sxemalarda, masalan, tranzistorli priyomniklarda sig'imni 20 dan 150 pF gacha o'zgartirishda ishlataladi. Boshlang'ich sig'imi, kondensator plastinkalarining biri boshqasining ustida joylashganda, 2 dan 25 pF gacha tebranadi.

Soat strelkasi bo'ylab yoki soat strelkasiga qarama-qarshi yo'nalishda rotor 2 ni burib priyomnik yoki asbob kerakli chastotaga sozlanadi. Rotoring statorga tekis yotishi shakldor yassi prujina 7 orqali amalga oshiriladi. Yuqoridaqgi plastinka 4 prujina 7 bilan tutash-

tirgich 3 orqali biriktirilgan. Plastina 8 ga kontakt 9 kavsharlangan. Bitta sim massa, ikkinchisi esa kontakt 9 hisoblanadi.

Kondensatorni yig'ish tartibi


Rotor va statorga kumush plastinalar 4 va 8 yelimlab yopishtiriladi (BF-2 yelimi, GOST 12172-74). Plastina 8 ga kontakt 9 kavsharlanadi. Stator 1 ning ostki qismiga vtulka 5, ustki qismiga esa rotor va prujina 7 o'rnatiladi. Vtulka 5 ga gayka 6 burab mahkamlanadi. Yuqoridaqgi plastinka 4 va prujina 7 ga tutash-tirgich 3 kavsharlanadi. Kavsharlash uchun POS 40 GOST 21931-76 kavsharidan foydalaniladi.

Savollar

1. Bosh ko'rinishda qanday qirqim bajarilgan?
2. Kondensatorning gabarit o'lchamlari chizmada ko'rsatilganmi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday aniqlanadi?
4. Tizimdagи tok o'tkazuvchi detallar qanday nomlanadi?
5. Bosh ko'rinishda nima uchun qirqim belgilanmagan?
6. Nima uchun stator 1 va rotor 2 katakcha qilib shtrixlangan?
7. Qaysi detallar o'zaro kavsharlab biriktirilgan?
8. Qaysi detallar o'zaro yelimlab yopishtirilgan?
9. $M5 \times 0,5$ rezbani shartli belgilanishining asl ma'nosi qanday?
10. Detal 1 ning eskizi qanday chiziladi?

Topshiriq

Detallar 1, 2, 5, 6 va 7 ning chizmalarini, vtulka 5 ning texnik rasmini chizing.



ANTENNANING KIRISH UCHINI KALIBRLASH UCHUN MOSLAMA

Radiopriyomnik antennasining kirish uchini kalibrlash pnevmatik moslama yordamida amalga oshiriladi.

Bu moslama quyidagicha ishlaydi. Qisilgan havo $0,4 \text{ MPa}$ (4 kgs/sm^2) bosim ostida shtutser *13* orqali taqsimlash klapanidan silindrga uzatiladi. Natijada turtkich *6* li porshen *8* yo‘naltirish kolonkasi *2* bo‘ylab qisqich *4* ni suradi, qisqich *4* kalibrlanayotgan detalni qisadi. Siqilgan havo keladigan jo‘mrak yopiqligida prujinalar *3* va *7* porshen va siqqichni dastlabki holatiga qaytaradi. Silindrga kirgan siqilgan

havo asos *5* ning chiqarish teshigi orqali chiqadi.

Moslamani yig‘ish tartibi

Asos *5* ga silindr *9* vintlar *14* yordamida biriktiriladi. Silindrga prujina va porshen kiydiriladi. Keyin silindrga qistirma *10* va qopqoq *11* o‘rnatalib, vint *14* bilan qotiriladi. Qopqoqqa qistirma *12* kiydirilgan shtutser *13* burab kiritiladi.


Asos *5* ning markaziy teshigiga turtkich *6* o‘rnataladi. Skoba *1* ga prujina *3* va qisqich *4* kiydirilgan kolonka *2* bosib o‘rnataladi. Yig‘ilgan detallar to‘plami vintlar *15* yordamida asosga biriktiriladi.

Savollar

1. Chizmadagi qirqimlar qanday nomlanadi?
2. Kesim deb nimaga aytildi? Chizmada kesim bormi?
3. M , N va K nuqtalarining yetishmayotgan proyeksiyalari qanday aniqlanadi?
4. Qanday detallar qirqimda shtrixlanmaydi? Chizmadan shunday detallarni ko‘rsating.
5. Asos *5* dagi teshikning vazifasi nimadan iborat?
6. Chegaradagi detallar qanday tasvirlanadi?
7. Skoba *1* da nechta ochiq teshik bor?
8. Prujinaning ish chizmasida qanday o‘lchamlar ko‘rsatiladi?
9. Prujina *7* ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?
10. Detal *5* ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar *1*, *4*, *5*, *8*, *9* va *13* ning chizmalarini, shtutser *13* ning texnik rasmini chizing.



GAZ KLAPANI

Klapan gaz moslamalarida (skafandrlarda) termodifuzion jarayonlarni o'tkazishda kameraga gaz uzzatish uchun xizmat qiladi.

Qurilma korpus 6, klapan 1, kallak 2, qopqoq 4 va boshqa biriktiruvchi va mahkamlovchi detallardan tashkil topgan. Klapan 1 L63 rusumli latundan ishlangan shtok bilan birga, rezinadan quyib tayyorlangan. Kallak 2 ning aylanishi natijasida klapan rezinasi deformatsiyalanib, korpusdagi o'tish teshigini ochadi yoki yopadi, natijada o'tuvchi gaz miqdori rostlanadi.

Klapanni yig'ish tartibi

Klapan 1 rezina press-qolipni rezina bilan, shtokni qo'shib, to'ldirib tayyorlanadi. Kallak 2 qopqoq 4 bilan yumaloqlab biriktiriladi. Bunda qopqoq tubi kallakdagi shaybalar 3 va 9 orasida qolishi, kallakning o'zi bemalol aylanishi kerak. Keyin klapan shtogi kallak 2 ga burab kiydiriladi.

Klapan qopqoq bilan birgalikda korpus 6 ga qo'yiladi. Qopqoq ustidan planka 5, korpus tagidan planka 7 qoplanib, bolt 8 lar orqali tortib mahkamlanadi.

Savollar




1. Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
2. $B - B$ tasvir qirqimni ko'rsatyaptimi yoki kesimnimi?
3. M, N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Rezba $M \ 12 \times 1,5$ ning shartli belgilanishi nimani anglatadi?
5. Qaysi detallarda taram chiziqlar qilingan, taram chiziqlar ish chizmalarda qanday belgilanadi?
6. Qurilmada o'rnatish o'lchamlari qanday ko'rsatiladi?
7. Qurilmadagi armaturalangan detalni ko'rsating. Detaldagi armaturani mahkamlashdagi mustahkamlik nimaga asoslangan?
8. Detal 5 da nechta rezbali teshik bor?
9. Spetsifikatsiyadagi bolt 8 shartli belgilanishining ma'nosi nimani anglatadi?
10. Detal 6 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Klapan 1 va nostandard detallarning chizmalarini, qopqoq 4 ning texnik rasmini chizing.



MARKAZDAN QOCHMA ROSTLAGICH

Rostlagich perforatorda yig‘ma birlik va elektron hisoblash mashinasi kartasida ma’lu-motlarni yig‘ish qurilmasida nazorat qilgich bo‘lib, ko‘rsatilgan moslamalar kretasining ravon yurishini ta’minalash uchun xizmat qildi.

Rostlagich korpus 1, qopqoq 3, valik-shesterna 8, vtulka 9, asos 2, asos o‘qlariga ravon o‘rnatilgan kolodka 11, halqalar 4 va 6, baraban 5, prujina 7 va boshqa detallardan iborat. Asos 2 vtulkada ravon aylanadi. Asos 20 rusumi po‘latdan tayyorlangan flanes va ikkita o‘qdan iborat. Korpus 1 rusumi St3 bo‘lgan po‘latdan tayyorlangan kosa va kronshteyndan iborat, ular o‘zaro 3×8 (GOST 10299-68) parchinmixlar bilan biriktirilgan. Harakat karetka reykasidan valik-shesterna 8 ga o‘tadi, u esa baraban 5 ni prujina 7 bilan birgalikda aylantiradi. Prujina

tortilib, asos 2 va kolodka 11 ni aylantiradi. Agar karetka tezligi kattalashsa, markazdan qochma kuchlar ta’sirida kolodka korpus kosasi tomonga og‘adi va butun uzatmani to‘xtatadi. Valikning aylanish tezligi kichiklashishi bilan ishqalanish kamayadi yoki yo‘qoladi.

Rostlagichni yig‘ish tartibi


Kosa va kronshteyn parchinmixlar bilan biriktiriladi. Asosdagи flanesga o‘rnatilgan o‘q uchlarini pachoqlab biriktiriladi. Vtulka 9 korpusga yumaloqlab va kernlab biriktiriladi. Keyin asos 2 vtulka 9 ga, asosga esa prujina 7 kiydiriladi. Asos 2 o‘qiga navbat bilan halqalar 6 va kolodkalar 11 kiydiriladi. Baraban 5 prujina ichiga burab kiritiladi. Vtulka 9 va baraban 5 ichiga valik-shesterna 8 kiritilib, unga shaybalar 10 va 12 kiydiriladi va valik shplint 13 bilan mahkamlanadi. Qopqoq 3 korpusga kiydiriladi va qisib qo‘yiladi.

Savollar

1. Bosh ko‘rinishda qanday qirqim ko‘rsatilgan?
2. Nima uchun parchinmix, o‘q va valik-shesterna 8 bosh ko‘rinishda shtrixlanmasdan bajarilgan?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Parchinmix yordamida va pachoqlab biriktirilgan detallar chizmada qanday tasvirlangan?
5. Kronshteynning nechta teshigi bor?
6. Chizmada biriktirish o‘lchamlari qanday ko‘rsatilgan?
7. Prujina 7 ning vazifasi nimadan iborat?
8. GOST 2.402-68 da tishli g‘ildiraklarni tasvirlashda qanday shartlilik qabul qilingan?
9. Prujina 7 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?
10. Detal 9 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Korpus 1 ning yig‘ish chizmasini, asos 2, detallar 5, 8 va 11 ning chizmalarini, korpus kosasining texnik rasmini chizing.



HAVO KLAPANI

Havo klapani uchish apparatlarining pnevmatik sxemalarida ishlatalidi.

Klapan qurilmaning pnevmosistemasi ichiga likopchasi *8* ni pastga qilib o'rnatiladi, korpus *2* ning tortuvchi flanesi bilan qurilma flanesi mahkamlanadi va *8* ta bolt yordamida qotiriladi. Gayka *10* yordamida klapan belgilangan bosimga sozlanadi. Prujina *7* ikkita tarelka *5* va *8* yordamida qotirib qo'yiladi. Bosim ortishi bilan klapan *6* ochiladi, natijada havo

egar *4* bilan klapan *6* orasidagi tirqish orqali korpus *2* ga kiradi va shtutser *1* orqali olib ketuvchi tizimga o'tadi.

Klapanni yig'ish tartibi

Egar *4* korpus *2* ga oltita vint *9* vositasida mahkamlanadi. Egar *4* ga chap tomondan likopcha *5* kiydiriladi, keyin prujina *7* qo'yilib, likopcha *8* o'rnatiladi. Klapan *6* qo'yilib tagiga shayba *11* qo'yilgan gayka *10* yordamida tortib qotiriladi. Keyin korpus *2* ga qistirma *3* kiydiriladi va shtutser *1* burab kirgiziladi.

Savollar




1. Detal *2* qanday sirtlardan tashkil topgan?
2. *B - B* tasvir nimani bildiradi: qirqimnimi yoki kesimnimi?
3. Detal *4* da nechta ochiq teshik bor?
4. Nega bosh ko'rinishda detallar *6*, *9*, *10* va *11* qirqib ko'rsatilmagan?
5. Detal *2* da yo'niq va faska qanday tasvirlangan?
6. Chizmalarda qanday hollarda yarimko'rinishni yarimqirqim bilan birgalikda ko'rsatish mumkin?
7. *M*, *N* va *K* nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
8. *A - A* qirqim zarurmi? Uni asoslang.
9. Po'lat *45* shartli belgilanishining ma'nosi qanday?
10. Detal *2* ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Detallar *1*, *2*, *4*, *5*, *6* va *8* ning chizmalarini, egar *4* ning texnik rasmini chizing.



YUTGICH

Yutgich (поглотитель) elektr zanjirlarida ishlataladi va quvvati yuqori chastotali impuls-larning quvvatini olish uchun mo‘ljallangan. Qurilma ikkita yig‘ma birlikka ega: qopqoq 1, unga uchta plastinka (2×8 GOST 10300-68) parchinlab biriktirilgan va ajratgich 2, u vtulka va shtirdan tashkil topgan, ular ajralmaydigan qilib plastmassa bilan biriktirilgan. Vtulka D 16 rusumli aluminiy qotishmasidan, shtir esa L63 latunidan tayyorlangan. Qopqoq va plastinalar St3 rusumli po‘latdan tayyorlangan.

Shtir va chap kontakt 5 orqali olinayotgan tok qarshilik 4 ga keladi. O‘ng kontakt 8g‘ilof 3 ga ulangan. Tok qarshilikdan o‘tib, o‘ng kon-

takt orqali massaga keladi. Izolatsiyaning ishonchliligi plastmassa izolatsiya qatlam ajratgichi 2 va shayba 7 orqali ta’milanadi.

Yutgichni yig‘ish tartibi

Qopqoq 1 ga uchta plastina mahkamlanadi. Ajratgich press-qolipda tayyorlanadi. Keyin ajratgichning vtulkasiga biriktiruvchi gayka kiydiriladi va vtulka qopqoq 1 ga gayka 10 bilan mahkamlanadi. Shtirning rezbali uchiga shaybalar 7 va 12 hamda chap kontakt 5 o‘rnatilib, gayka 11 bilan mahkamlanadi. Chap kontakt 5 ning oltita o‘yig‘iga qarshilik 4 o‘rnatiladi, oxiriga esa o‘ng kontakt kiydiriladi. Ustdan g‘lof 3 kiydirilib, vint 9 bilan mahkamlanadi.

Savollar




1. Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
2. Ajratgich 2 detallaridan qaysilari qotirib qo‘yuvchi elementlar?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Nima uchun vint, parchinmix va shtirlar shtrixlanmasdan chizilgan?
5. Qaysi detallarda taram chiziqlar bor? Ular ish chizmalarida qanday belgilanadi?
6. Qopqoqda nechta ochiq teshik bor?
7. Qaysi detallar ajralmaydigan qilib biriktirilgan?
8. Rezba M 24×2 ning shartli belgilanishi nimani anglatadi?
9. Gayka 11 ni qotirish uchun qanday operatsiyalarni bajarish kerak?
10. Detal 5 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Ajratgich 2, qopqoq 1 ning yig‘ish chizmasini, detallar 3–8 ning chizmalarini va qopqoq 1 ning texnik rasmini chizing.



UZATUVCHI PICOQ

Uzatuvchi pichoq P80-6 EHM „Minsk-32“ perforatorining uzatuvchi mexanizmida ishlataladi.

Qurilma surilgich (polzun) 4, o‘qiy vint 3, kolodka 2, pichoq 1, valik 5, rostlovchi vint 6, qotirib qo‘yuvchi vint 7 va mahkamlash detallaridan tashkil topgan.

Surilgich 4 uzatish mexanizmining o‘yig‘ida joylashgan. Uzatish mexanizmi richagi ta’sirida (chizmada ko‘rsatilmagan) surilgich 4 kolodka 2 va pichoq 1 bilan o‘ngga harakatlanib, pichoqning chiqiq‘i bilan pastdagi perfokartani qamrab oladi va uni tirqish orqali transport roligiga uzatadi.

Uzatish mexanizmida joylashgan uzatuvchi pichoq mexanizimi perfokartalarni joylash uchun mo‘ljallangan.

Pichoqni yig‘ish tartibi

Surilgich 4 ning dumaloq yon teshiklariga valik 5 o‘rnataladi, teshik rezbalariga o‘qiy vint 3 kiritiladi. Vintning bo‘s sh uchiga kolodka 2 kiydiriladi va shayba kiydirilgan vint 8 bilan qotiriladi. Keyin kolodkaning rezbali teshigiga rostlovchi vint 6 kiritiladi, so‘ng kolodka 2 ga pichoq 1 vint 9 yordamida shunday qotiriladi, vint 6 ning kallagi pichoq 1 ning o‘yig‘iga kirsin.

Vint 9 ostidagi pichoqning teshigi cho‘ziq shaklda, bu pichoqning kolodka ostidan balandligi bo‘yicha chiqishini (kamida 0,1 mm) rostlash imkonini beradi. Rostlash vint 6 yordamida bajariladi.

Savollar




- Chizmada mahalliy qirqim va kesimlar qanday ko‘rsatilgan?
- A –A qirqimda qaysi detallar ko‘rsatilgan?
- M, N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- Qaysi ko‘rinishlar yordamchi? Chizmada shunday ko‘rinish bormi?
- Rezbali detallarni ko‘rsating. Metrik rezbalar qanday kattaliklarda ifodalanadi?
- Vint 7 nima uchun xizmat qiladi?
- Mahalliy qirqim qanday chiziq bilan chegaralanadi?
- Chizmada keltirilgan o‘lchamlarning qaysilari gabarit o‘lchamlar?
- Kolodkada nechta rezbali teshik bor?
- Kolodkaning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Detallar 1–5 ning ish chizmalarini, surilgichning texnik rasmini chizing.



ELEKTROMAGNITLI KLAPAN

Klapan „Minsk-32“ EHMning axborot to‘plovchi magnit tasmasidagi yo‘naltiruvchi val bo‘shlig‘ida ortiqcha bosim yoki vakuum hosil qilish uchun mo‘ljallangan (val chizmada ko‘rsatilmagan).

Klapan aylanadigan yo‘naltiruvchi val bo‘shlig‘i ichida joylashgan. Valdagi bo‘shliqda vakuum hosil qilinganda uning ko‘p sonli teshiklari hisobiga magnitli tasma valga so‘riladi va uning tortilishi ta’milnadi. Ortiqcha bosim hosil qilinganda val bilan tasma orasida havo tirqishi paydo bo‘ladi va tasma to‘xtaydi.

Korpus 3 ga ikkita elektromagnit mahkamlangan, ular orasida yakor 6 bor. Chap elektromagnit ulanganda yakor 6 chap o‘zak 5 ni berkitadi, o‘ng o‘zakni esa ochadi, 12 ta teshik va korpus 3 tirqishi orqali yo‘naltiruvchi val bo‘shlig‘idan havo so‘riladi (vakuum hosil qilinadi). Agar o‘ng elektromagnit ulansa, yakor

o‘ng o‘zak 5 ni berkitadi va bosim chap o‘zak teshiklari orqali yo‘naltiruvchi val bo‘shlig‘iga uzatiladi. Paneldagi ikkita M3 rezbalni teshik klapanni demontaj qilishda ajratgichni mahkamlash uchun xizmat qiladi.

Kolodka 2 plastmassadan tayyorlanib, rezbalni vtulkalar bilan armaturalangan. Vtulka L68 rusumli latun materialdan ishlangan. G‘altak 1 plastmassa o‘zak va simdan tashkil topgan.

Klapanni yig‘ish tartibi

G‘altak 1 o‘zaklarga presslab kiritilgan. Keyin vtulka 4 ga o‘ng o‘zak 5, vtulka 8, yakor 6, chap o‘zak, qopqoq 7 o‘rnataladi va gayka kontrgayka 11 bilan qotiriladi. Shunday yig‘ilgan elektromagnitlar korpus 3 ichiga o‘rnataladi va vint 9 bilan qotirib qo‘yiladi.

Kontakt kolodka 2 qopqoq 7 ustiga o‘rnataladi va vintlar 12 bilan mahkamlanadi.

Savollar




- Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
- A – A qirqimga qanday detallar tushgan?
- M va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- Korpus 3 da nechta rezbalni teshik bor?
- Qurilmada armaturalangan detal qanday tasvirlangan?
- Detallarning plastmassada mahkamlanish mustahkamligi nimaga asoslangan?
- GOST 2415-68 ga binoan g‘altak chulg‘amlari qirqimlarda qanday shartli tasvirlanadi?
- M6 × 1,5 – shartli belgilashning ma’nosini nimani anglatadi?
- Qopqoq 7 ning nechta rezbalni teshigi bor?
- Detal 3 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Detallar 3 – 7 ning chizmalarini, o‘zak 5 ning texnik rasmini chizing.



KICHIK KO‘ZGU

Ko‘zguning asosiy vazifasi obyektivdan kela-yotgan yorug‘lik nuri yo‘nalishini o‘zgartirishdan iborat. Yorug‘lik nurining ko‘zguga tushish burchagi qaytish burchagiga teng. Ushbu moslamada ko‘zgu nurni 90° ga og‘dirishi mumkin.

Ko‘zgu 1 yostiq 3 ga mahkamlangan bo‘lib, u asos 4 ga bolt 10 bilan mahkamlangan. Bolt sharsimon tovon 8 ga tayanadi hamda vtulka 7 atrofida ma’lum burchakka buralishi mumkin. Asos 4 kronshteyn bilan bikir qotirilgan va unda uchta vint 6 bo‘lib, ularga tovon tayanadi. Bunday sistema ko‘zgu 1 ning holatini vint 6 yorda-

mida osongina sozlash imkonini beradi. Vint 6 yordamida rostlash tugatilgandan so‘ng asosga nisbatan gayka 5 bilan qotirib qo‘yiladi.

Kichik ko‘zguni yig‘ish tartibi

Asos 4 kronshteyn 2 ga vintlar 12 va shtiftlar 15 bilan mahkamlanadi. Asos teshiklariga vintlar 6 burab kirgiziladi.

Ko‘zgu yostiqqa burchakliklar 9, vintlar 11 va shtiftlar 14 bilan mahkamlanadi. Vtulka 7, tovon 8 va shayba bolt 10 ga kiydirilib, asos 4 ga o‘rnataladi. Bolt 10 uchi yostiqqa burab kirgiladidi.


Yig‘ib bo‘lgandan so‘ng ko‘zgu holati rostanadi.

Savollar

- Chizmada mahalliy qirqimlar qanday tasvirlangan?
- Mahalliy qirqim deb nimaga aytildi? Ular qachon qo‘llaniladi?
- Detal 4 da nechta teshik bor?
- M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- Shaffof materiallar qirqimda qanday shtrixlanadi?
- Materialning BrAJN 11-6-6 belgilanishining ma’nosи qanday?
- Asos 4 kronshteyn 2 ga nechta vint yordamida biriktiriladi?
- Detal 7 qanday sirtlardan tashkil topgan?
- Ko‘zgu 1 qanday detallar bilan mahkamlanadi?
- Detal 2 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 2, 3, 4, 7 va 9 ning chizmalarini, yostiq 3 ning texnik rasmini chizing.



KONTAKT KOLODKA

Kolodka tranzistorni sinash uchun xizmat qiladi.

Qurilmada kolodka 1 teshigida uyalar 4, qisqich 3, richag 7, prujina 5, dastak 8, o‘q 2 va mahkamlash detallari joylashgan.

Dastak 8 ni pastga buraganda richag 7 o‘q 2 atrofida aylanadi va prujina 5 ni siqib, qisqich 3 ni uya 4 dan tortib chiqaradi. Tranzistorning chiqish simlari uyaga kiritiladi. Agar dasta qo‘yib yuborilsa, prujina qisqichni chiqish simlariiga qisadi va ishonchli kontakt hosil qiladi.

O‘lchagichning simlarini vintlar yordamida mahkamlash uchun har bir uya 4 ning pastki qismida rezba bor. Kolodka o‘lchagich taxtasiga vintlar bilan qotiriladi.

Kontakt kolodkani yig‘ish tartibi

Kolodka 1 ga uyalar 4 qo‘yiladi va uchi yumaloqlanib mahkamlanadi. Keyin korpusga qisqichlar 3, prujinalar 5, qoplagich 6 qo‘yib vintlar 9 bilan qotiriladi. So‘ng richag 7 ni korpusga qo‘yib, o‘q 2 o‘rnataladi. Dastak 8 richaga vintlar 9 bilan mahkamlanadi.

Savollar




1. Nima uchun qisqich 3 bo‘ylama qirqimda kesib ko‘rsatilmagan?
2. Chizmada mahalliy qirqimlar qanday tasvirlanadi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Qoplagich 6 da nechta teshik bor?
5. Prujinaning ish chizmasida qanday o‘lchamlar ko‘rsatiladi?
6. O‘rnatish o‘lchamlari qaysilar?
7. Qaysi detallar plastmassadan tayyorlangan?
8. Qirqim bilan kesimning farqi nimada?
9. Prujina 1 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajariladi?
10. Detal 7 ning eskizi qanday bajariladi?



Topshiriq

Detallar 1, 2, 3, 4 va 10 ning chizmalarini, detal 10 ning texnik rasmini chizing.



TO'LQINUZATKICH SEKSIYASI

Seksiya (to'lqinuzatkichning bir bo'lagi) o'ta yuqori chastotali tajriba o'tkaziladigan asbobda berilayotgan elektromagnit to'lqin quvvatini o'lchashda ishlataladi. U to'g'ri burchak kesimli to'lqinuzatkich 2, flaneslar 3, yo'naltiruvchi planka 1, sirg'anuvchi planka 6, ustuncha 5, vint 7, kallak 8 va boshqa detallardan tashkil topgan. Qurilma yuqori chastotali asbobning boshqa detallariga flaneslar 3 yordamida ulanadi. To'lqinuzatkich 2 da tor ko'ndalang tirqish bo'lib, uni sirg'anuvchi planka 6 qisman berkitadi. Kallak 8 burilganda vint 7 yumaloq teshikli sirg'anuvchi planka 6 bilan suriladi. Natijada uzatilayotgan elektromagnit to'lqin quvvati qiymati o'zgaradi.

Seksiyani yig'ish tartibi


Flaneslar 3 to'lqinuzatkich 2 ga vintlar 10 bilan mahkamlanadi. Burchakliklar 4 ham to'lqinuzatkichga vintlar yordamida mahkamlanadi. Yo'naltiruvchi planka 1 to'lqinuzatkich burchakliklariga vintlar bilan mahkamlanadi. Kallak 8 vint 7 ning silliq uchiga kiydirilib, shtift 11 bilan qotiriladi. Keyin ustuncha 5 ni yo'naltiruvchi planka 1 ga qo'yib, shtiftlar 11 bosib o'rnatiladi va vintlar 10 burab qotiriladi. Shundan so'ng vint 7 sirg'anuvchi planka 6 teshigiga kiritiladi va ustuncha 5 ning rezbali teshigiga qotiriladi. Bunda sirg'anuvchi planka 6 oldindan yo'naltiruvchi planka 1 va ustun 5 hosil qilgan tirqishga qo'yib olinadi.

Savollar

1. Yig'ish chizmasi qanday tartibda o'qiladi?
2. Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
3. Nima uchun profil qirqimga yozuv qo'yilmaydi?
4. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
5. $B-B$ qirqimda qaysi detallar ko'rsatilgan?
6. Qaysi detal taramlangan?
7. Detal 3 ning nechta teshigi bor?
8. Biriktirish o'lchamlari qanday o'qiladi?
9. To'lqinuzatkich 2 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 1 – 3 va 5, 6, 8 ning chizmalarini, yo'naltiruvchi planka 1 ning texnik rasmini chizing.



QAYTA ISHGA TUSHIRUVCHI KLAPAN

Klapan bosimi 1,0 MPa (10 kgs/sm²) gacha bo‘lgan havo sistemalarida havoni qayta taqsimlash uchun xizmat qiladi. U korpus *3*, qopqoqlar *2* va *10*, shtok *1*, klapan *6*, prujinalar *5*, *8* va boshqa detallardan tuzilgan. Shtok *1* o‘ngga surilganda klapan *6* ochilib, korpus yon teshiklarining biridan ikkinchisiga havo o‘ta boshlaydi. Prujina *5* shtokni dastlabki holatiga qaytaradi. Prujina *8* esa klapanlarni qaytarib, korpusning ichki teshiklarini berkitadi, bir yon teshikdan boshqa yon teshikkacha kelayotgan havo to‘siladi.

Savollar

1. Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
2. *A – A* qirqimda qaysi detallar ko‘rsatilgan?
3. *M, N* va *K* nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Prujina *8* ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?
5. Chizmada yotqizilgan kesim qanday tasvirlangan?
6. Yuqorida ko‘rinishda rezba qanday belgilanadi?
7. Rezbaning M10x1 belgilanishi nimani anglatadi?
8. Kesimda vintsimon prujina orqasida joylashgan buyumni tasvirlash mumkinmi?
9. Detal *2* ning nechta rezbali teshigi bor?
10. Detal *1* ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar *1*, *2*, *3*, *7* va *10* ning chizmalarini, detal *10* ning texnik rasmini chizing.


Sistema ichidagi qoldiq bosimni yo‘qotish uchun shtok va korpusda teshik mavjud.

Klapanni yig‘ish tartibi

Korpus klapani *7* ga klapan *6* qo‘yiladi. Keyin korpus *3* ga yig‘ilgan klapan, prujina *8*, qistirma o‘rnataladi va bolt *11* ga gayka *12* kiydirilib burab qotiriladi.

Korpusning boshqa tomonidan prujina *5* rezina halqali shtok *1* bilan qo‘yiladi, qopqoq qo‘yilib, vintlar bilan qotiriladi.

Korpusning yon tomonidagi teshiklariga egiluvchan shlang ulanadi (chizmada ko‘rsatilmagan).



FILTR

Filtr uchish apparatlarining havo tizi-midagi havoni muallaq zarrachalardan toza-lash uchun o'rnatiladi.

Havo qopqoq 8 ning teshiklaridan kiradi va uch qavat namat qistirma 3 orqali o'tadi. Mis-to'r 4 namat qistirmani havo ta'siridan titilib ketishdan saqlaydi. Havo korpusning chiqish teshiklari orqali iste'molchiga boradi.

Filtrni yig'ish tartibi


Korpusga detallar 2, 3, 4 va 5 qo'yiladi. Qopqoq 8 unga qistirmalar 6 va 7 kiydirilgan holda korpusga burab mahkamlanadi. Qopqoq 8 ning 6 ta teshigidan biriga korpusning rez-bali teshigi to'g'rilanadi va vint 9 ga shayba 10 kiydirib qotiriladi. Vint 9 filtrning ishlashi vaqtida qopqoq 8 o'z-o'zidan buralib bo'shab ketishining oldini oladi.

Savollar

1. Detal 1 qanday sirtlardan tashkil topgan?
2. GOST 2.305-68 bo'yicha qanday ko'rinishlar tasvirlangan?
3. Detal 8 da o'yiq va faskalar qanday tasvirlangan?
4. Qirqim bilan kesimning farqi nimada?
5. Yig'ish chizmalarida qanday o'lchamlar qo'yiladi?
6. Metrik rezba bilan duym rezba orasida qanday farq bor?
7. Nimalar detal elementlari bo'lib hisoblanadi?
8. Detal 5 yuzasidagi metall aralashmalarni olib tashlash uchun nima qilish kerak?
9. Detal 8 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 1, 2, 5, 6 va 8 ning chizmalarini, korpus 1 ning texnik rasmini chizing.



VAKUUM DATCHIGI

Vakuum datchigi „Minsk-32“ EHM tarkibidagi axborot to‘plovchi NML-67 magnit tasmasining vakuum kolonkasidagi vakuum nazoratini amalga oshiradi. Datchik ikkita yarimkorpus 3 va 9 dan iborat bo‘lib, ularning asosi tekstolit qistirmabop rezina listdan tayyorlangan membrana 1 ni qisib turadi. Membrana detallari 2×4 GOST 10299-68 parchinmix bilan biriktirilgan. O‘ng tomondan membranani likopcha 5 ga tayanuvchi va vint 4 bilan rostanuvchi prujina 6 ushlab turadi.

Yarimkorpus 9 dagi burchaklik 11 ga mikroalmashlab-ulagich o‘rnatilgan bo‘lib, u datchikni rostlash vaqtida burchaklik, ustuncha 10 va vtulka 8 bilan gorizontal (o‘q) yo‘nalishda surilishi mumkin.

Datchik rezina shlang yordamida vakuum kolonkasiga ulangan. Kolonkalarda 43 ± 5 MPa (430 ± 50 kgs/sm²) vakuum bo‘lishi zarur. Bu holda mikroalmashlab-ulagich kontaktlari ajratilgan bo‘ladi. Zaryadlangan membrana egilish chegarasi qisqarib, shu ko‘rsatkich darajasidan past egilish chegarasida membrana

qisqaradi. Natijada kontaktlar ulanadi, avariya signali berila boshlaydi.

Mikroalmashlab-ulagich o‘tkazgichi rezbali vtulka bilan armaturalangan plastmassa kolodka 2 ga ulanadi. Vtulkaning materiali – latun L63.

Datchikni yig‘ish tartibi


O‘ng yarimkorpus 3 ga vint 4 burab kiritiladi va nazorat gaykasi 16 ni qo‘yib qotiriladi. Chap yarimkorpus 9 ga vtulka 8 burab kiritiladi, uning o‘zi gayka 16 bilan qotiriladi. Shtift 20 ni ustuncha 10 ga bosib kiritiladi va burchaklik shayba 17 kiydirilgan vint 14 yordamida qotiriladi. Keyin ustuncha vtulkaga kiritiladi va shaybalar 17 va 19 kiydirilgan vint 14 bilan burab qotiriladi. Shundan so‘ng o‘ng yarimkorpusning ichiga likopcha 5, prujina 6 va membrana 1 qo‘yiladi. Bu guruh detallar chap yarimkorpus bilan biriktirilib, vint 15 lar yordamida mahkamlanadi: uchta o‘ng tomondan va uchta chap tomondan, ularning ikkitasi bir vaqtning o‘zida kronshteyn 7 ga mahkamlanadi hamda vint 15 lar tagiga shaybalar 19 qo‘yiladi. Kolodka 2 kronshteynga shayba 18 lar kiydirilgan vint 13 lar bilan mahkamlanadi.

Savollar

1. A – A qirqim zarurmi? Uni asoslang.
2. Mahalliy qirqimlar chizmada qanday tasvirlangan?
3. M, N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Kronshteynda nechta teshik bor?
5. Nima uchun kolodkalardagi vtulka 2 da taramlash bajarilgan?
6. Qanday hollarda pozitsiya tartib raqamlarining bir nechtasini ko‘rsatish uchun umumiyl chiziq tortiladi?
7. Shtift 20 ning vazifasi nima?
8. Yig‘ish chizmalarida chegaradagi detallar qanday tasvirlanadi?
9. Prujina 6 ni almashtirish uchun qanday tartibda demontaj qilinadi?
10. Detal 9 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 3, 4, 5, 6, 7 va 10 ning chizmalarini, yarimkorpus 3 ning texnik rasmini chizing.



FONAR

Indikatorli fonardan EC-1022 EHM da hisoblash indikatori sifatida foydalaniladi.

Fonar boshqarish pultidagi protsessorda joylashgan. Korpus 1, sochgich 3 va shildiklar 2 shaffof plastmassadan tayyorlangan. Korpus oq, qizil, sariq yoki ko'k rangda bo'lishi mumkin. O'ta kichkina cho'g'lanma lampa patronga bayonetli birlashtiriladi. Tekis egilgan prujina 7 o'zining yon teshiklari bilan korpusning chiqiqlarini qamrab, fonarning hamma tashqi detallarini biriktirib turadi.

Fonarni yig'ish tartibi

Patron 4 ning tor teshiklariga ichkaridan kontaktlar 5 o'rnatiladi va tashqariga chiquvchi uchi burab mahkamlanadi. Patronga qizdirilgan prujina 6, patronning plastik massasini qizdirib, bir-ikki o'rami bilan shakllanadi, natijada keyinchalik patrondan prujina tushib ketmaydi. Keyin patronga lampa burab o'rnatiladi.

Shundan so'ng korpusga shildik 2, sochgich 3, lampali patron o'rnatiladi va prujina 7 bilan biriktiriladi. Boshqarish pultiga fonar prujina 7 bilan montaj qilinadi. Prujina panjası devorga tayangan holda panel uyasiga mahkamlanadi. Indikatsiyaning elektr zanjiri similari kontaktlar 5 ga kavsharlanadi.




Savollar

- Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
- Tok o'tkazuvchi sistema detallari qanday tasvirlangan?
- M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- Shaffof buyumlar yig'ish chizmalarida qanday tasvirlanadi?
- Vintsimon prujina ortida joylashgan va faqat kesimda ko'rsatilgan buyumlar qanday tasvirlanadi?
- GOST 2.306-68 da tor va uzun yuzalar kesimlarini tasvirlash bo'yicha qanday ko'rsatmalar berilgan?
- Qanday hollarda egilgan detallarning yoyilmasi chizmada ko'rsatiladi?
- Chizmada o'rnatish o'lchamlari qanday o'qiladi?
- Lampochkani almashtirish uchun qanday operatsiyalar qilinishi kerak?
- Detal 1 ning eskizi qanday bajariladi?



Topshiriq

Detallar 1, 3, 4, 5 va 7 ning chizmalarini, detal 7 ning texnik rasmini chizing.



OBYEKTIVNING OSTKI TUBUSI

Tubus yorug'lik nurlarini sindirish, shuningdek, asbobning aniq ko'rsatishini sozlash va yustirlash uchun xizmat qiladi.

Tubusning ishslash prinsipi, nurlarning uchburchak prizma 11 va qisqa fokusli okulardan (linza 15 va skleyka 1) o'tishiga asoslangan. Linza va skleykalar maxsus yelim bilan biriktirilgan. Asbobning aniq ko'rsatishi tubus trubkasi 8 dagi sterjen 7 ni siljitiq rostlanadi. Buning uchun vint 2 bilan qotirilgan vint 18 bo'shatiladi, tubus o'qi bo'ylab vint 2 hamda prujina 5 yordamida sterjen va unga bikir mahkamlangan prizma 11 suriladi. Tubus asbobning asos qismiga flanes 4 yordamida biriktiriladi.

Tubusni yig'ish tartibi


O'rnatgich 13 da okular yig'iladi. Linza olddan ravshan qilinadi va faska qirqiladi. Shundan so'ng ishchi bo'limgan yuzalar va faska emal bilan qoplanadi. O'rnatgich 13 ga skleyka 1, halqa 14, linza 15 o'matiladi va ularni rezbali halqa 12 bilan qisib qo'yiladi. Keyin okilar tubus trubkasiga o'rnatiladi va vint 17 ni burab qotiriladi, keyin sterjenning tarkibiy qismlari yig'iladi. Sterjen 7 ga prizma 11, planka 9, halqa 16 va vint 20 yordamida mahkamlanadi. Tubus prizma bilan sterjen orasida yaxshiroq yotishi uchun rezina qistirma 10 joyланади. Sterjenning boshqa tomonidan flanes 4 vint 19 bilan qotiriladi. Sterjen tubus trubkasi 8 ga ornataladi va vint 6 burab qotiriladi. Kolodka 3 ga vint 2 burab kiritiladi va vint 18 bilan qotiriladi. O'zak 7 ning uchidagi uyasiga prujina 5 qo'yiladi, bo'sh uchi vint 2 ga kiydiriladi. Kolodka vint 21 bilan qotiriladi.

Savollar

- Chizmada yelimalsh qanday shartli tasvirlangan?
- Detal 7 ni qanday sirtlar tashkil etadi?
- M, N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- Kesim bilan qirqimning qanday farqi bor?
- O'zak 7 da nechta rezbali teshik bor?
- Po'lat 65G materiali shartli belgilanishining ma'nosi nima?
- Detal 13 nima uchun taramlangan? U ish chizmalarida qanday belgilanadi?
- Chizmadagi biriktirish o'lchamlari qanday o'qiladi?
- A—A kesuvchi tekislik qaysi detallardan o'tadi?
- Detal 8 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 2, 3, 4, 7 va 8 ning chizmalarini, qisqich 13 ning texnik rasmini chizing.



INDUKTIV G‘ALTAK

Induktiv g‘altak tebranish konturi sifatida xizmat qiladi. Uning vazifasi induktivlik va sig‘im hosil qilishdagi rezonansli chastota bilan radiosignal chasteotasingning mos kelishini ta‘minlashdan iborat.

G‘altak radiopriyomniklarda radiouzatkich va boshqa qurilmalarda chastota bo‘yicha radiosignal seleksiyalarini hosil qilishda ishlataladi. G‘altak qurilmasi oddiy. Asos 1 armaturalangan plastmassa buyum. Armaturasi rezbali vtulka shaklida L63 rusumli latundan

yasalgan. G‘altak 2 plastmassa asos va simdan tashkil topgan.

G‘altak 2 o‘qi bo‘ylab o‘zak 6 siljiganda induktiv qarshilik o‘zgaradi, natijada tebranish chasteotasi ham o‘zgaradi.

G‘altakni yig‘ish tartibi

Asos press-qolipda tayyorlanadi. G‘altak 2 ostki zirhli o‘zak 3 ichiga qo‘yib yuqori zirhli o‘zak 4 bilan yopiladi va asos 1 uyasiga qo‘yiladi. Keyin yuqori zirhli o‘zak qopqoq 5 bilan berkitilib, vint 8 bilan mahkamlanadi. Moslovchi o‘zak 6 zirhli o‘zak 4 ga burab kiritiladi.

Savollar




1. Chizmada bajarilgan qirqimlar qanday nomlanadi?
2. Qanday hollarda yarimko‘rinishni yarimqirqim bilan berishga ruxsat etiladi?
3. G‘altak o‘ramlari ko‘ndalang va bo‘ylama qirqimlarda qanday tasvirlanadi?
4. Detallar 3 va 4 qanday materiallardan tayyorlangan? Nima uchun ular qirqimda metall kabi shtrixlanadi?
5. G‘altakni almashtirish uchun qanday tartibda demontaj qilinadi?
6. Detal 6 da nechta ochiq teshik bor?
7. Qurilmadagi armaturalangan buyumni ko‘rsating. Armaturani plastmassaga qotirishning o‘ziga xos xususiyati nimada?
8. Rezba M9×1 ning shartli belgilanishi nimani anglatadi?
9. Asos 1 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Asos 1 ning yig‘ish chizmasi, nostandard detallarning chizmalari va qopqoq 5 ning texnik rasmini chizing.



YUQORI CHASTOTALI AJRATGICH

Ajratgich antenna kabelini iste'molchiga ulashda ishlatiladi. Qurilma qo'yma 1, vtulkalar 2, tinqin 3, korpus 4, gaykalar 5 va 6 dan iborat. Qo'yma 1 plastmassa qism va shtirdan tuzilgan. Shtir materiali – L63 rusumli latun. Shtir uyasiga sim kavsharlanadi, u korpus 4 dan vtulka 2 bilan izolatsiyalangan. Ajratgichning ikkinchi qismi tashlama gayka yordamida mahkamlanadi.

Ajratgichni yig'ish tartibi


Qo'yma press-qolipda tayyorlanadi. Korpus 4 ga o'ng tomondan qo'yma 1 o'rnatiladi, uning orqasidan vtulka 2 qo'yilib, tinqin 3 bilan qisiladi. Korpusning chap qismiga tashlama gayka 6 kiydiriladi va uning o'ng cheti maxsus moslama yordamida qisiladi. Natijada u korpusning chiqiq'idan ushlab qoladi. Korpusning ustidan gayka 5 burab kiydiriladi.

Savollar

1. Chizmada bajarilgan qirqimlar qanday nomланади?
2. Yarimko'rinish bilan yarimqirqimni nima ajratib turadi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Qaysi detallar taramlangan? Detalning ish chizmasida u qanday belgilanadi?
5. M22×1 shartli belgilanish qanday o'qiladi?
6. Ajratgichning tashqi o'lchamlari qanday o'qiladi?
7. Shtirdagi teshik nima uchun xizmat qiladi?
8. Armaturalangan detal chizmada qanday ko'rsatiladi?
9. Yig'ish chizmalarida tutash detallar qanday shtrixlanadi?
10. Detal 4 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Qo'ymaning yig'ish chizmasi, detallar 2–5 ning chizmalari va detal 2 ning texnik rasmini chizing.



QAMRAB TUTKICH

Qamrab tutkich termokompressor qurilmasiagi moslama bo'lib, integral sxemalar tayyorlashda oltin simlarni dozalash uchun ishlataladi.

Mexanizmning ish organi bo'lib plastinka 8, kolodka 7, sterjen, dasta 9 va mahkamlash detallaridan iborat pinset xizmat qiladi

Pinset plunjер 12 ga sharnirli birikkan. U o'z o'qi atrofida uning uchiga presslab kiritilgan vtulka 13 bilan birga aylanadi. Vint 16 plunjerning aylanishini korpusning radial o'yig'i bo'yicha chegaralaydi.

Plunjер yo'nig'iga tiralgan fiksator 3, tok o'tkazuvchi simlarni aniq dozalash maqsadida, mexanizmdagi tirqishni bartaraf etish uchun mo'ljallangan. Tormoz 6 pinsetning vertikal yo'nalishda harakatini stabillashtiradi. Oltin simlarni dozalash mexanizmi qo'lida yuritiladi. Sterjen-dasta 9 o'z o'qi atrofida 90° ga burliganda plastinalar 8 ochilib, oltin simlarni qamraydi

va orqaga harakatida uni qisadi. Keyin pinset quloqcha 11, korpus 1 ga tekkuncha pastga tushadi va plunjер 12 o'qi atrofida soat strelkasiga teskari buriladi. Bu holda sim kerakli uzunlikda uziladi. Sim integral kristaliga to'g'rilanadi va termokompression usulda tutashtiriladi.

Qamrab tutkichni yig'ish tartibi

Sterjen-dasta 9 kolodka 7 teshigiga o'rnatiladi va shtift bilan qotiriladi. Kolodkaning usti va ostidan plastinalar 8 qoplanadi va vintlar 14 va 15 bilan mahkamlanadi. Plunjер 12 ning ostki uchiga vtulka 13 presslab o'rnatiladi. Keyin plunjер teshigiga vintsimon prujina 5 va tormoz 6, plunjerga quloqcha 11 o'rnatiladi. Plunjер va pinset o'q 10 bilan biriktiriladi. Yig'ilgan guruh detallar plunjер bilan birlashtiriladi korpus 1 ga o'rnatilib vint 16 bilan qotiriladi. Korpusning yon yumaloq chiqig'iga fiksator 3, prujina 4 o'rnatiladi va rostlovchi vint 2 burab kiritiladi.

Savollar




1. Bosh ko'rinishda qanday qirqim bajarilgan?
2. Chizmada mahalliy qirqimlar qanday ko'rsatilgan?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. O'rnatish o'lchamlari qanday o'qiladi?
5. Prujinalarning ish chizmalarida qanday o'lchamlar ko'rsatiladi?
6. Kesuvchi tekisliklar o'rni qanday chiziq bilan ko'rsatiladi?
7. $A - A$ kesuvchi tekislikka qaysi detallar tushgan?
8. Spetsifikatsiyada berilgan vint 15 qanday shartli belgilanadi?
9. Prujina 5 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajariladi?
10. Detal 1 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Detallar 1, 2, 7, 11 va 12 ning chizmalarini va kolodka 7 ning texnik rasmini chizing.



SUPPORT SISTEMA

Support sistema yuqori aniqlikdagi radio-texnika va elektron apparatlarni yasashdagi nazorat asboblari va uskunalarini o'rnatish uchun ishlataladi.

Asbob bo'ylama support 1 ga o'rnatilib, vint 7 bilan mahkamlanadi. Asos 8 dastgoh stani-nasiga to'rtta vint yordamida qotiriladi. Supportlar 5 va 1 asosga nisbatan bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishda harakatlanadi. Harakatlanish kronshteynlar 4 va 6 ga bog'langan maxsus vintlar 3 orqali amalga oshiriladi.

Vintlar 7 plankalar 2 va 9 ga tayanib, hamma sistemaning holatini fiksatsiyalaydi.

Sisteman ni yig'ish tartibi


Ko'ndalang support 5 va asos 8 ga kronshteynlar 4 va 6 vintlar 10 yordamida biriktiriladi. Keyin ko'ndalang support paziga planka 2 va bo'ylama support 1 ning trapetsiyasimon chiqig'i o'rnatilib, vint 7 va maxsus vint 3 burab kiritiladi. Vintlar 7, 3 va planka 9 yordamida ko'ndalang support 5 va asos 8 xuddi shunday yo'l bilan biriktiriladi.

Savollar

1. Qanday qirqimlar mahalliy qirqim deb ataladi?
2. Qirqim bilan kesim orasida qanday farq bor?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Sertifikatsiyada keltirilgan vint 10 qanday shartli belgilanadi?
5. Asos 8 da nechta ochiq teshik va berk teshik bor?
6. Chizmada qanday vintlarni soddalashtirib, qandaylarini soddalashtirmsandan tasvirlash mumkin?
7. Qaysi detallarda taramlash bor? Ular ish chizmalarida qanday belgilanadi?
8. Supportlar 1 va 5 ning; support 5 ning asos 8 bilan birikishi qanday ta'minlangan?
9. Chizmadagi qaysi o'lchamlar o'rnatish o'lchamlari?
10. Detal 8 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 1, 3 – 6, 7 ning chizmalari va detal 1 ning texnik rasmini chizing.



INTEGRAL SXEMANI SINASH UCHUN KONTAKT QURILMA

TO-5 qurilmasi korpusdagi integral sxemalarning statik parametrlarini o‘lchash uchun mo‘ljallangan.

Qurilma korpus 1, panel 6, asos 5, mufta 4, kontakt prujinalar 3, to‘xtatish halqasi 2 va mahkamlash detallaridan iborat. Asbob o‘lchagich paneliga o‘rnataladi va uchta vint bilan qotiriladi.

Integral sxemalarning chiqish simlari yo‘naltiruvchi korpus 1 ga o‘rnataladi va ishonchli kontakt hosil qilish uchun mufta 4 to‘xtatish halqasigacha surilib, kontaktli prujinalar qisiladi.

Kontaktli prujinalarning pastki uchiga integral sxemalarning o‘lchagich simlari kavsharanadi.

Qurilmani yig‘ish tartibi

Korpus 1 ning yumaloq chiqig‘iga panel 6 kiydiriladi va shayba 9 kiydirilgan vint 7 bilan qotiriladi. Kontaktli prujinalar 3 korpusning kesiklariga joylanadi va panelning teshiklariga o‘rnataladi. Kontakt prujinalarni mahkam qisgan holda korpus ustiga asos 5 kiydiriladi va panel 6 bilan uchta vint 8 yordamida biriktiriladi. Keyin mufta 4 va qotirib qo‘yish halqasi 2 qo‘yiladi.

Savollar




1. Chizmadagi qirqimlar qanday nomlanadi?
2. Qanday detallar va detal elementlari qirqimda qirqilmay ko‘rsatiladi? Shunday detallarni chizmadan ko‘rsating.
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Chizmada chiqarish elementlari qanday tasvirlangan?
5. Panel 6 da nechta teshik bor?
6. Chizmada o‘rnatish o‘lchamlari qanday tasvirlangan?
7. Qanday hollarda yarimko‘rinish va yarimqirqim birgalikda tasvirlanadi?
8. $A-A$ qirqim qaysi detallar orqali o‘tadi?
9. Kontakt prujina 3 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalarni bajarish kerak?
10. Detal 1 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Detallar 1–6 ning chizmalari va mufta 1 ning texnik rasmini chizing.



PERFORATOR

Dastaki perforator „Minsk-32“ EHM perforatsiyalash tasmasidagi xatolarni to‘g‘-rilashda ishlataladi. Uning yordamida sinxro- yo‘lakda diametri 1,2 mm li va ish yo‘lida 1,8 mm li teshiklar o‘yish mumkin.

Qurilma asos 3, qopqoq 5, matritsa 6, yo‘-naltiruvchi 7, puassonlar 1 va 2 hamda boshqa detallardan tuzilgan. Har bir puasson 15X rusumli po‘latdan tayyorlangan shtir bilan armaturalangan plastmassadan iborat.

Shtirlar diametrlari 1,2 va 1,8 mm. Kerakli teshik ochish uchun qopqoq 5 ochiladi va matritsa 6 ga perfotasma shunday o‘rnatiladiki,

unda shtiftlar 9 sinxro-yo‘laklar teshigiga to‘g‘ri kelsin. Keyin qopqoq yo‘naltirgich 7 tasmasini qisgan holda yopiladi. Perforatorning konus-simon uyachasidan kerakli puassonni chiqarib, perfotasmada kerakli teshiklar o‘yladi.

Perforatorni yig‘ish tartibi


Puassonlar 1 va 2 press-qolipda tayyor-lanadi. Matritsa 6 ga shtiftlar 9 va 10, qopqoq 5 ga esa shtift 10 presslab kiritiladi. Keyin yo‘naltiruvchi 7 qopqoqqa o‘rnatiladi va vint 8 bilan qotiriladi. Matritsa 6 asos 3 ga o‘rnatilib, vint 8 bilan qotiriladi. Shundan so‘ng qopqoq asosga o‘q 4 yordamida biriktiriladi.

Savollar

1. Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
2. $B-B$ kesuvchi tekislik qaysi detallardan o‘tgan?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Detal 3 da nechta rezbali teshik bor?
5. Qurilmada armaturalangan detallar qanday tasvirlangan?
6. Nima uchun detallar 4, 8, 9 va 10 bo‘ylama qirqimda shtrixlanmagan?
7. Puassonlar 1 va 2 asos 3 da qanday mahkamlangan?
8. Detallar 6 va 7 dagi teshiklarning o‘qdoshligi qaysi detallar yordamida ta’minlanadi?
9. Detal 7 da nechta teshik bor?
10. Detal 3 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Puasson 2 va nostandard detallarning chizmalarini hamda qopqoq 5 ning texnik rasmini chizing.



ULAB-UZGICH

Tugmachali ulab-uzgich yuqori voltli asboblarni qisqa vaqt ulab-uzishda ishlataladi.

Qurilma uchta yig‘ma birlikdan iborat: korpus 1, qopqoq 2 va tutashtirgich 3. Korpus 1 armaturalangan plastmassa buyum bo‘lib, uning armaturasi ikkita qo‘zg‘almas kontakt va vtulkadan iborat. Vtulka L68 rusumli latundan yasalgan.

Qopqoq 2 ning plastinasiga ikkita rezbali vtulka yumaloqlab biriktirilgan. Plastina va vtulka St3 rusumli po‘latdan ishlangan.

Tutashtiruvchi plastina 3 harakatlanuvchi ikkita kontakt va ikkita shaybadan iborat. Plastinaning materiali BrB2 rusumli bronza, kontaktniki L68 rusumli latun va shaybaniki LK 80–3 rusumli latundir.

Tugmacha 6 bosilganda richag 8 pastga tushib, tutashtirgich 3 ni korpusning qo‘zg‘almas kontakrtiga bosadi. Tutashtirgich plastinasi tekis

prujina vazifasini o‘taydi va ayni vaqtida past kuchlanishli tokni o‘tkazuvchi bo‘lib hisoblanadi.

Ulab-uzgichni yig‘ish tartibi

Korpus 1 press-qolipda tayyorlanadi. Richag 8 ga vtulka 7 presslab o‘rnataladi. Qo‘zg‘aluvchan kontaktlar shayba kiydirilgan holda plastina teshiklariga qo‘yiladi va kontakt uchlari parchinlanadi. O‘q 9 ga detallar 10, 3, 11, 12, 7, 4 kiydiriladi va o‘qning uchi parchinlanadi. Keyin vtulka 7, prujina qo‘yilgan holda tugmacha 6 ga bosib kiritiladi. O‘q 9 ning uchi yuqorida korpus vtulkasiga kiritiladi, ostidan esa gayka 14 burab kiritiladi.


Qopqoq 2 ning plastinasi rezbali vtulkaga yumaloqlab biriktiriladi, keyin qopqoq 2 korpus 1 ga kiydiriladi va qopqoqning chiqqlari korpusning chiqqlari orasiga bukib qo‘yiladi. Qo‘zg‘almas kontakt teshiklariga shaybalar 15 kiydirilgan vintlar 13 burab kiritiladi.

Savollar

- Chizmada GOST 2.305-68 bo‘yicha har bir tasvirlanish qanday ko‘rsatilgan?
- Qanday hollarda yordamchi ko‘rinishlar bajariladi, ushu chizmada shundaylar bormi?
- M, N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- Chizmada biriktirish o‘lchamlari qanday ko‘rsatilgan?
- Chizmadagi qaysi ko‘rinish bosh ko‘rinish hisoblanadi?
- Qanday hollarda qirqimda detal shtrixlanmaydi, qoraytirib qo‘yiladi, xolos?
- Chizmada A–A qirqim zarurmi? Uni asoslang.
- Chizmada tok o‘tkazish sistemasidagi detallar qanday tasvirlangan?
- Detal 5 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar qilinishi kerak?
- Richag 8 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Korpus 1 ning yig‘ish chizmasi, nostandard detallarning chizmalari va korpus 1 ning texnik rasmini chizing.



PATRON

Patron tok taqsimlash shitida va boshqa qurilmalarda radiotexnik blok va sistemalardagi 10 dan 30A gacha bo‘lgan tok yuklanishidan saqlash uchun ishlataladi. Unda ajraluvchi saqlagich 1, zanjirdan saqlagich, kavsharlangan chiqish simlari bor 2 korpus 4, qopqoq 3 va boshqa detallardan iborat. Saqlagich 1 shisha trubka, St3 rusumli po‘latdan tayyorlangan ikkita pichoq, 0,20 mm li simdan tashkil topgan. Vilkaning chiqish simlari L63 rusumli latundan, o‘zi esa BrB2 rusumli bronzadan tayyorlangan.

Patron panelning yuza qismiga o‘rnataladi.

Patronni yig‘ish tartibi

Saqlagich quyidagi tartibda yig‘iladi. Sim trubkaga yelimlangan pichoqqa kavsharlanadi. Trubkaning boshqa tomonidan boshqa pichoqning teshigiga sim o‘rnatalib kavsharlanadi. Pichoq ham trubkaga yelimlanadi. Bunda BT GOST 8017-74 yelimidan va POS 40 GOST 21931-76 kavsharidan foydalaniлади. Vilkalar chiqish simlariga parchinlanib biriktiriladi. Keyin chiqish simlari korpus 4 teshigiga qo‘yiladi va gayka 6 bilan qisiladi. Keyin vilkaga saqlagich o‘rnatalib, qopqoq burab qo‘yiladi.


Patron shit paneliga to‘rtta vint yordamida qotirib qo‘yiladi.

Savollar

1. Chizmadagi qirqimlar qanday nomlanadi?
2. Yarimko‘rinish bilan yarimqirqim orasidagi chegara vazifasini nima bajaradi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Qaysi detallar yelimlab biriktiriladi?
5. Chizmada tok o‘tkazuvchi sistema detallari qanday tasvirlangan?
6. Prujina 5 ning vazifasi nima?
7. Patronni shit paneliga o‘rnatishda qanday o‘lchamlar inobatga olinishi kerak?
8. Chizmada kavsharlashning shartli belgilanishi qanday ko‘rsatiladi?
9. Chizmada egilgan detallar qanday bajarilgan?
10. Detal 4 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Saqlagich 1 ning yig‘ish chizmasi, chiqish simlari bilan vilka 2 ning, nostandard detallarning chizmalarini va detal 3 ning texnik rasmini chizing.



QISUVCHI ROLIK

Qisuvchi rolik „Minsk-32“ EHM ning tasma tortuvchi mexanizmi to‘plagichida joylashgan va tasmani magnit kallagi yonidan harakatlanishini ta‘minlab turadi. Tasmaning o‘ngga yoki chapga harakatlanishini rolik 4 bajaradi. Bunda tasmani elektr motorning o‘ng yoki chap yetakchi valiga siqadi. Tasmaning o‘ng yoki chap tomonga harakatlanishi, rolik 4 ning elektr motorning o‘ng yoki chap yetakchi valiga bosilishi orqali amalga oshiriladi. Rolik richag 10 ga mahkamlangan va ishga tushiruvchi elektromagnit (chizmada ko‘rsatilmagan) o‘zagiga tortqi bilan biriktirilgan.

„Ishga tushirish“ signali kelganida chulg‘am orqali tok oqadi, natijada o‘zak tortilib, richag 10 ni buradi va rolikni elektr motor valiga qisadi.

„To‘xtash“ signali kelishi bilan elektromagnitga tok kelishi to‘xtaydi. Bunda prujina rolikni tasmodan oladi, ya’ni uni dastlabki vaziyatiga qaytaradi.

Rolikni yig‘ish tartibi


Rolik 4 ning ichki yo‘nig‘iga zoldirli podshipnik 15 o‘tqaziladi va flaneslar 2 bosib kiritiladi. Rolikka rezina trubka 5 kiydiriladi. Keyin rolik korpus 1 vilkasiga solinadi, uning teshigi orqali o‘q 3 o‘tqaziladi va shtiftlar 14 yordamida mahkamlanadi. Keyin richag 10 ga korpus teshigi orqali vtulka 9 o‘tkaziladi. Vtulkaga o‘q 8 qo‘yilib, uchiga qalpoqcha kiydiriladi va rolikni ish holatiga qo‘yib, shayba 12 kiydirilgan vint 7 burab kiritiladi.

Savollar

1. Chizmadagi qirqimlar qanday nomlanadi?
2. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
3. Podshipnik 15 ni almashtirish uchun demontaj ishlari qay tartibda bajarilishi kerak?
4. Chizmada zoldirli podshipniklar shartli qanday tasvirlanadi?
5. Chizmada biriktirish o‘lchamlari qanday ko‘rsatiladi?
6. Yig‘ish chizmasida qanday o‘lchamlar ko‘rsatiladi?
7. Yig‘ish chizmasi nima uchun xizmat qiladi?
8. Qaysi detallarga rezba o‘yilgan?
9. Detal 1 da nechta teshik bor?
10. Detal 8 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 1, 6, 8 va 10 ning chizmalari va korpus 1 ning texnik rasmini chizing.



ELEKTROMAGNITLI TORMOZ

Elektromagnitli tormoz „Minsk-32“ EHM dagi magnit tasma to‘plagichida magnit tasma harakati tugaganda, kasseta yuritmasini to‘xtashda ishlataladi. Tormoz yig‘ma birliklari tormozlovchi disk 1, g‘altak 2, kontaktli kolodka 3 dan iborat. 45 rusumli po‘latdan tayyorlangan tormoz diskiga plastmassa qoplama ichi teshik parchinmix 4×10 (GOST 12639-67 bo‘yicha) bilan qotiriladi.

G‘altak 2 plastmassa karkas sim va loklangan mato (LXM-105 GOST 2214-70) dan iborat. Kolodka 3 plastmassadan quyib ishlangan, unga ST3 rusumli po‘latdan tayyorlangan rezbali vtulka armaturalangan. G‘altak 2 o‘ramlaridan zanjirga tok ulanganda qisuvchi disk 8 prujina qarshilagini yengib o‘tib, halqa 9 ga tortiladi.

Bunda tormozlovchi disk 1 kasseta uzatmasida joylashgan oraliq diskdan (chizmada ko‘rsatilmagan) nari ketadi. Mexanizm yuritmasi bunda tormozlanmay, erkin ishlaydi. Uzatma to‘xtatilganda, g‘altak zanjiridagi tok o‘chadi.

Tormozni yig‘ish tartibi

Kolodka 3 oboyma 9 ga vint 12 yordamida mahkamlanadi. Halqa 9 korpus 4 ga shaybalar 16 kiydirilgan vintlar 13 yordamida mahkamlanadi. Qoplama tormoz diskiga parchinlab yopishtiriladi va qisuvchi disk 8 ga vintlar 14 bilan mahkamlanadi. Halqa 9 ga tirak 7, prujina 6 va g‘altak 2 o‘rnataladi. Keyin tormozlovchi disk 1 o‘rnatish tiraklari 5 orasiga joylashtiriladi. Tormoz bolt 11 yordamida rostlanadi, u, o‘z navbatida, kontrgayka 15 yordamida qotiriladi.

Savollar




- Chizmada berilgan qirqimlar qanday nomlanadi?
- Mahalliy qirqim deb nimaga aytildi? Chizmada shunday qirqimlar bormi?
- M, N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- G‘altak chulg‘amlari chizmadagi qirqimda qanday ko‘rsatiladi?
- Chizmada armaturalangan detallar qanday tasvirlangan?
- Qaysi detallar taramlangan?
- Prujinaning ish chizmalarida qanday o‘lchamlar qo‘yiladi?
- Korpus 4 da nechta rezba o‘yig‘i bor?
- Bolt 11 ning vazifasi nimadan iborat?
- Detal 4 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Detallar 1–3 va 5–9 ning chizmalarini, halqa 9 ning texnik rasmini chizing.



KONTAKT UYASI

Uya radiotexnik apparatda past kuchlanishli elektr zanjirlar simlarini ulash uchun xizmat qiladi va korpus 1, ayri 2, rozetka 4 va boshqa detallardan tashkil topgan. Korpus 1 va ayri 2 – armaturalangan plastmassa buyumlar. Armatura korpusda ikkita rezbali vtulka va ayridagi ikkita shtepsel ko‘rinishida, ular L63 rusumli latundan tayyorlangan. Shtepsellarga asbob simlari kavsharlanadi, biriktiruvchi

simlar rozetka darchasidan chiqarilib, uyaga kavsharlanadi.

Uyani yig‘ish tartibi


Korpus 1 va ayri 2 press qolipda tayyorlanadi. Rozetka 4 ga uya 3 qo‘yilib, mahkamlanadi. Korpusga rozetka qo‘yiladi. Rozetkaga qopqoq qo‘yilib, uni korpusga rozetka bilan birga, vintlar 6 yordamida mahkamlanadi. Uya mahkamlanadigan asbobning devor paneli korpus bilan rozetka orasida bo‘ladi.

Savollar

1. Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
2. Qanday hollarda yarimqirqim bilan yarimko‘rinish birgalikda tasvirlanadi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Buyumning asbob va kabel qismlari qanday nomланади?
5. Qaysi detallar taramlangan? Ular ish chizmalarida qanday belgilanadi?
6. Chizmada tok o‘tkazuvchi detallar qanday tasvirlangan?
7. Chegaradagi detallar qanday tasvirlanadi?
8. Qanday hollarda gorizontal, frontal va profil qirqimlardagi kesuvchi tekislikning joylashishi va qirqimning o‘zi yozuv bilan belgilanmaydi?
9. Rozetkani kabelga qo‘shish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?
10. Detal 10 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Vilka va korpus hamda nostandard detallarning chizmalarini, detal 1 ning texnik rasmini chizing.



YURITMALI TO'LQINUZATKICH

Yuritmali to'lqinuzatkich o'ta yuqori chas-totali (O'YCH) elektromagnit to'lqinlarini so'ndirishda ishlataladi.

To'lqinuzatkich O'YCH kanali flanesiga M30×1,5 rezbada mahkamlangan. Shtir 6 yuqori uchi bilan kanalga kiritiladi. Soat strelkasi bo'ylab disk 7 aylantirilganda shtir 6 vtulka 5 rezbasi bo'ylab yuqoriga suriladi hamda elektromagnit to'lqini kuchlanishini o'zgartiradi.

To'lqinuzatkichda mexanik yuritma mayjud. Elektr motor ulanishi bilan val 4 tishli g'ildiraklar 3 ni aylantiradi. Tishli g'ildirak valga shponka 18 yordamida biriktirilgan. Tishli g'ildirak 3 shesterna 10 bilan ishlangan bo'lib, u shtir bilan bikir birikkan.

Shesterna 10 aylanganda shtir 6 aylanib, o'qi bo'ylab yuqoriga va pastga suriladi, natijada elektromagnit to'lqin kuchlanishi o'zgaradi.

To'lqinuzatkichni yig'ish tartibi

Shesterna 10 ning pastki qismiga disk 7 presslab kiritiladi va qistirma 8 kiydirilib, gayka 9 qotiriladi. Keyin shtir 6 ning rezbali uchiga yumaloq gayka 16 burab kirdiladi. Korpus 1 ning ostidan rezbali vtulka o'rnatilib, unga shtir 6 burab kiritiladi.

Dasta 11 ga tishli g'ildirak uning vali 4 va shponkasi 18 bilan o'rnatiladi. Valning o'ng tomonidagi uchiga shayba 17 kiydiriladi va gayka 15 burab kiritiladi.

Dasta 11 korpusga vint 2 bilan qotiriladi. Vintlar 13 va 12 yordamida tishli juftlikning ilashishi rostlangandan so'ng kontrgayka 14 burab qotiriladi.

Savollar




1. *B-B* tasvirda qanday detallar ko'rsatilgan?
2. Bosh ko'rinishda qanday qirqimlar bajarilgan?
3. *M, N* va *K* nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Chizmada to'lqinuzatkichning biriktirish o'chamlari qanday ko'rsatilgan?
5. Detal 5 dagi yo'niqni ko'rsating. U nima uchun kerak?
6. Yig'ish chizmasi nima uchun bajariladi?
7. Detal 1 da nechta teshik bor?
8. M24×2 shartli belgilanishning aniq ma'nosi nima?
9. GOST 2.402-68 da tishli g'ildiraklar uchun qanday shartliliklar qabul qilingan?
10. Detal 1 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Detallar 1, 4, 5, 7 va 11 ning chizmalarini, detal 5 ning texnik rasmini chizing.



BLANKALAR DATCHIGI

Datchik „Minsk-32“ EHM ning yozish qurilmasi ishida buzuqlik bo‘lganda, signal berish uchun ishlataladi.

Blankalar qisuvchi roliklar 9 ta’sirida o‘tadi. Markazdan qochuvchi kuchlar ta’sirida zoldirlar 17 turkich 3 shtokidan tarqalib, prujina 5 ni siqadi va dasta 2 ni bo‘shatadi. Tutkichning bunday holatida mikroulab-uzgichning kontaktlari ochiq bo‘ladi. Blanka buzilsa, rolik 9 aylanmaydi, zoldir shtokka tushadi va tirak 4 konussimon bo‘lgani va prujinalar 5 va 7 ta’siri tufayli tutkichlar 3 zoldirlar bilan chapga harakatlanadi, richagni qisadi va mikroulab-uzgichning kontaktlarini ulaydi. Bunda old panelda

„Buzilgan“ signali beriladi. Datchik tirak 6 bilan rostlanadi. Richag 2 ning holati vint 13 yordamida kronshteyn 1 ni harakatlantirib, rostlanadi.

Datchikni yig‘ish tartibi


Tayanch 10 sapfasiga zoldirli podshipniklar 18 o‘rnataladi. Keyin tirak 6 prujina 7 bilan birgalikda flanes 8 ga burab kiritiladi va u rolik 9 ga o‘rnatilib, vint 14 bilan qotiriladi. Rolikning boshqa tomonidan prujina 5, turkich 3, zoldirlar 17 va tirak 4 qo‘yilib, vintlar 14 bilan qotiriladi. Keyin rolik 9 ga podshipnik 18 tayanch 10 bilan o‘tqaziladi va vint 13 ga shaybalar 15 va 16 kiydirilib, korpusga qotiriladi. Kronshteynga vint 12 bilan mahkamlangan dasta 2 korpusning yuqori qismiga vint 13 bilan qotiriladi.

Savollar

1. Chizmada bajarilgan qirqimlar qanday nomlanadi?
2. Qaysi detallar chizmadagi ko‘ndalang qirqimlarda qirqmasdan ko‘rsatiladi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Yig‘ish chizmalarida chegaradagi detallar qanday bajariladi?
5. O‘rnatish o‘lchamlarini o‘qish tartibi qanday?
6. Podshipniklar qanday shartli tasvirlanadi?
7. Vintlarni belgilashda qanday o‘lchamlar ko‘rsatiladi?
8. Datchik qanday rostlanadi?
9. Prujina 5 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?
10. Detal 3 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 1, 4, 6, 8 va 11 ning chizmalarini, kronshteyn 1 ning texnik rasmini chizing.



TO'LQINUZATKICH-KOAKSIALLI O'TISH

To'lqinuzatkich-koaksialli o'tish O'YCH qurilmasida elektromagnit tebranishlarning uzatish liniyasida ishlatiladi. U korpus 3, ajratgich 2, asos 1, qopqoq 4 va boshqa detallardan iborat. Asos 1 kavsharlangan ikkita detal uya va ichki o'tkazgichdan iborat. Ular L63 rusumli latundan tayyorlangan. Korpus 3 nurlatgich korpusiga to'rtta vint bilan qotiriladi.

Ikkita shtift orqali aniq biriktiriladi. Ajratgich

2 ga elektromagnit tebranishlarni boshqa blok apparatlarga uzatuvchi koaksial kabel ulanadi.

O'tishni yig'ish tartibi

Uya va ichki o'tkazgich kumush kavshar bilan kavsharlanadi. Shunday hosil qilingan asos 1 korpus 3 ning yumaloq teshigiga qo'yiladi va vint 7 bilan mahkamlanadi. Keyin korpusga vtulka 5 o'tqaziladi, yon qopqoq 6 kiydiriladi va vintlar 9 bilan qotiriladi. Uya tomonidan korpusga ajratgich 2 qo'yiladi va shayba kiydirilgan vintlar bilan qotiriladi.




Savollar

1. Chizmada qanday qirqimlar ko'rsatilgan?
2. Nima uchun mahalliy qirqim ishlatiladi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Qurilmani korpus generatoriga mahkamlashda qanday o'lchamlar hisobga olinishi kerak?
5. A ko'rinishda qaysi detallar ko'rsatilgan?
6. Qaysi detallar o'zaro kavsharlangan?
7. M24×1 shartli belgilanishning ma'nosi nima?
8. Detal 3 ning nechta rezbali teshigi bor?
9. Detal 4 da nechta ochiq teshik bor?
10. Detal 3 ning eskizi qanday bajariladi?



Topshiriq

Detallar 1, 4, 6, 8 va 11 ning chizmalarini, kronshteyn 1 ning texnik rasmini chizing.



YUQORI CHASTOTALI AJRATGICH ROZETKASI

Rozetka asboblarni yuqori chastotali kabelga ulash uchun xizmat qiladi. Qurilma ustki *1* va ostki *7* korpus, izolator *2*, uya *3*, taramli gayka *4*, kirish gaykasi *10* va boshqa detallar dan iborat. Kabel mustahkam qotiriladi va qisqichcha *11*, vint *13* hamda zichlagich *8* yordamida zichlanadi. Markaziy o'tkazgich uya *3* ga kavsharlanadi. Gayka *4* rozetkani kerakli joyga ulaydi.

Rozetkani yig'ish tartibi


Izolator *2* teshigiga uya *3* o'rnatilib, gayka *6* bilan qotiriladi, uning ostiga esa shayba *18* qo'yiladi. Uyaning ustki qismiga esa halqa *14* kiydirilgan. Korpus *1* ning yuqori qismidagi silindrsimon teshigiga izolator *2*, vtulkalar *5* prujinali halqa *16* bilan qotiriladi. Keyin yuqorigi korpusga tashlama gayka *4* kiydiriladi va u prujinali halqa *15* bilan qotiriladi. Keyin yuqori va pastki korpuslar shaybalar *17* kiydirilgan vintlar *12* bilan birlashtiriladi. Yig'ilgan korpusning kirish qismiga zichlagich *8*, vtulka *9* va keyin gayka *10* burab kiritiladi va unda vintlar *13* vositasida qisqichcha *11* mahkamlanadi.

Savollar

1. Chizmadagi qirqimlar qanday nomlanadi?
2. Chizmadagi *B* – *B* tasvir qirqimni ifodalaydimi yoki kesimni?
3. *M*, *N* va *K* nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Zichlagich qanday ishlaydi?
5. Koaksial kabel qaysi detallar bilan birikadi?
6. Yig'ish chizmasiga qanday o'lchamlar qo'yiladi?
7. Detal *7* da nechta rezbali teshik bor?
8. Rezba M30×1,5 belgisi nimani anglatadi?
9. Rozetkaga kabelni ulash uchun qanday operatsiyalar bajariladi?
10. Detal *1* ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar *1–3*, *7* va *10* ning chizmalarini, detal *7* ning texnik rasmini chizing.



TRANZISTORNI SINASH UCHUN KOLODKA

Kolodka tranzistorlarni sinash uchun kontaktlash qurilmasi hisoblanadi. U korpus *10*, qopqoq *2*, qisqich *7*, bosma plata *3* va boshqa detallardan iborat. Aluminiy qotishmasidan tayyorlangan korpus qirrali shakldaligi unga radiator funksiyasini bajarish imkonini beradi. Sinashda tranzistorni bosma plata bilan qisma orasiga joylashtiriladi. Tirak *6* tranzistorning chiqiqlarini bosma platasi o'tkazgichlariga qisib, ishonchli kontakt hosil qiladi. Kolodka maxsus rozetkaga o'rnatiladi va unga o'lchash asboblari ulanadi.

Kolodkani yig'ish tartibi

Korpus *10* ga vintlar *12* bilan bargcha *9*, vintlar *13* bilan esa bosma plata *3* biriktiriladi. Korpus ostiga vintlar *16* yordamida ikkita planka *11* biriktiriladi.

Qisqich *7* ning uchta teshigiga tiraklar *6*, prujinalar *5* o'rnatiladi va qopqoq *4* kiydirilib vint *15* lar bilan qotiriladi. Shunday qilib, yig'ilgan qisma planka *11* va korpus orasidagi ariqchaga o'rnatiladi va maxsus vint *8* bilan qotirib qo'yiladi.


Qopqoqqa shtepsellar *1* o'rnatiladi, qopqoq *2* esa korpusga vintlar *14* yordamida mahkamlanadi.

Savollar

- Chizmada mahalliy qirqimlar qanday tasvirlangan?
- Chizmada kesuvchi tekisliklar vaziyati qanday chiziqlar bilan ko'rsatiladi?
- M*, *N* va *K* nuqtalarining yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- B* ko'rinishda qaysi detallar ko'rsatilgan?
- Chizmada buyumning gabarit o'lchamlari qanday ko'rsatilgan?
- Vint *8* ning vazifasi nimadan iborat?
- Korpus *10* da nechta rezbali teshik bor?
- Chizmada tok o'tkazuvchi detallar qanday ko'rsatilgan?
- Qaysi detal taramlangan? U detalning ish chizmasida qanday tasvirlanadi?
- Detal *7* ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar *1*, *2*, *4*, *7* va *10* ning chizmalarini, korpus *10* ning texnik rasmini chizing.



ELEKTROMAGNIT

Elektromagnit elektron hisoblash mashinalari tarkibiga kiruvchi magnitli barabanda axborotlarni toplash uchun mo‘ljallangan. U korpus 9, o‘zak 10, g‘altaklar (7, 8, 16, 17), yakor 1, gaykalar 4, prujinalar 3 va boshqa detallardan tuzilgan. G‘altak o‘ramlaridan jadallashtiruvchi tok o‘tganda yakor 1, manzil sistemasi qaydlovchisini olib tashlab, o‘zak 10 ni tortadi. Jadallashtiruvchi tokdan so‘ng elektromagnit orqali tutib turish toki o‘tadi. Agar g‘altak o‘ramlari toksizlantirilsa, yakor prujinalar ta’sirida dastlabki vaziyatiga qaytadi.

Gayka 4 yakor yurishini rostlaydi. Elektromagnit kommutator asosiga vintlar yordamida biriktiriladi.

Elektromagnitni yig‘ish tartibi


G‘altak korpus 9 ga o‘rnataladi va o‘zak 10 bilan berkitiladi. U korpusga vintlar 13 yordamida biriktiriladi. Korpusning boshqa tomonidan presslab halqa 6 o‘rnataladi va shayba 5 qo‘yilib yakor 1 o‘rnataladi. Keyin yakorga tashlama gayka 4 kiydiriladi, rezbali qismi bilan korpusga burab kiritiladi va yakor yo‘li ($1,4 \pm 0,1$ mm) rostlangandan so‘ng vintlar 12 bilan qotiriladi. Shundan so‘ng yakor o‘zagiga prujina 3, vtulka 2 kiydirilib, gayka va tashlama gayka 14 burab, shtift 15 esa presslab kiritiladi.

Savollar

1. Bosh ko‘rinishdagi qirqim qanday nomlanadi?
2. Chizmadagi $B-B$ tasvir qirqimmi yoki kesim?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. $A-A$ kesuvchi tekislik qaysi detallardan o‘tadi?
5. Vintli prujinalar ish chizmalarida qanday tasvirlanadi?
6. O‘ramlar ko‘ndalang va bo‘ylama qirqimlarda qanday tasvirlanadi?
7. O‘zakda nechta teshik bor?
8. Gayka 4 nima uchun xizmat qiladi?
9. Yakor yo‘lini rostlash uchun qanday operatsiyalar qilinishi kerak?
10. Detal 9 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 1, 4, 8, 9 va 10 ning chizmalarini, o‘zak 10 ning texnik rasmini chizing.



KASSETA YURITMASINING KALITI

Kalit „Minsk-32“ EHM ning axborotlarni to‘plovchi magnit tasmasining yuritmasida tas-mali kassetani mahkamlashda ishlataladi.

Kalit xomut 7 va boltlar 11 yordamida yuritma o‘qiga bikir o‘rnataladigan asos 1 (chizmada ko‘rsatilmagan), korpus 5, tushirgich 9, zoldirlar 17, turtkich 4, segmentlar 3, rezina halqa 2 va boshqa detallardan tashkil topgan.

Kassetta korpus 5 ning tashqi to‘g‘iniga qotiriladi. Kassetani olish uchun dasta 6 ni o‘zingizga tortish kerak. Bunda dastaga bikir birikkan tushirgich 9 suriladi va zoldirlarni 17 bo‘shatadi. Kassetani mahkamlash teskari tartibda bajariladi.

Kalitni yig‘ish tartibi

Rezbali uchiga rezina halqa 8 kiydirilgan tushirgich 9, korpus 5 ning markaziy teshigiga o‘rnataladi.

Korpusning radial teshiklariga zoldir 17 lar, turtkichlar va segmentlar 3 qo‘yilib rezina halqa 2 bilan berkitiladi.

Korpus asos 1 ga shaybalar 13 kiydirilgan vintlar 12 bilan qotiriladi.

Dasta 6 korpusga gayka 10 yordamida qo-tiriladi, uning ostiga maxsus shayba 15 qo‘yiladi. Keyin asos 1 ga xomut 7 shaybalar 14 va 16 kiydirilgan boltlar 11 bilan biriktiriladi.




Savollar

1. Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
2. Chizmada kesim tasvirini ko‘rsating. Qirqim bilan kesimning farqi nimada?
3. M, N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Korpus 5 da nechta teshik bor?
5. Yig‘ish chizmasida chegara buyumlar qanday tasvirlanadi?
6. Chizmada kalitning gabarit o‘lchamlari qanday ko‘rsatilgan?
7. Chizmada yarimko‘rinish va yarimqirqim orasida nima turadi?
8. Nima uchun detallar 4 va 17 shtrixlanmagan?
9. Rezina halqa 8 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarish kerak?
10. Detal 5 ning eskizi qanday bajariladi?



Topshiriq

Detallar 1, 5, 6, 7 va 9 ning chizmalarini, asos 1 ning texnik rasmini chizing.



D2-31 ATTENYUATORI

Attenyuator aloqa sistemasida signal manbayi bilan iste'molchi orasida moslashtirish qurilmasi sifatida ishlatilib, unda elektr kuchlanishli signal bir vaqtning o'zida 20 dB gacha pasaytiriladi. U keng miqyosda EHM ning hisoblash tizimlarida, yozishni kuchaytirishda, avtomatika va axborotlarni kiritish-chiqarish tizimlarida ishlatiladi.

Qurilma to'rtta rezistor *13*, halqlar *9*, kontaktlar *2*, *5*, *7*, vtulkalar *3*, kirgizma *1*, korpus *4* va boshqa detallardan tuzilgan.

Attenyuatorning ishslash prinsipi amplituda signallari o'zgarishining registivli (ro'yxatli) bo'linishiga asoslangan.

Attenyuatorni yig'ish tartibi

Korpus *4* ning chiqig'iga tashlama gayka *8* kiydiriladi va uning erkin buralishi ta'minlangan holda qisiladi. Kontaktlar *2* va *7* ning bo'yinlariga yarimhalqlar *6* kiydiriladi va ular RTM YGO. 054.006 bo'yicha PU-2 poliuretan yelimi bilan yelimlanadi. Keyin halqa *9* ning bo'shlig'iga rezistor *13* kontakt *5* bilan birgalikda kiritiladi va to'rtta vint *12* bilan mahkamlanadi. Kontakt *5* ning sangali chiqiqlariga ikkita MLT-025-26,1 rezistori o'rnatiladi.

Keyin korpus *4* ga kontakt *7*, vtulka *3*, rezistorli halqa *9*, ikkinchi vtulka va kirgizma *1* qo'yiladi va u ikkita vint *11* bilan qotiriladi.



Savollar

- Chizmadagi tasvirlar qanday nomланади?
- B-B* qirqimda qaysi detallar ko'rsatilган?
- M, N* va *K* nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topilади?
- A-A* qirqim nima maqsadda bajarilган?
- Qaysi detallar shaffof materialdan tayyorlangан?
- Nima uchun buyum *13* shtrixlanmagan?
- Chegaradagi detallar qanday tasvirlanади?
- Qaysi detallar yelimlab biriktirilган?
- Rezistor *13* ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilади?
- Korpus *4* ning eskizi qanday bajarilади?


Topshiriq

Detallar *1*, *2*, *4*, *5* va *9* ning chizmalarini, halqa *9* ning texnik rasmini chizing.

Poz. 2, 3 va 7 lar
o'ita holida ko'satilgan



Poz.	Bejjilanishi	Nominalishi	Soni	Material	Eslatma
		Yig'ma birlig'lar			
1	02.41.01.00/B	Korpus	1		
		Detalar			
2	02.41.00.02	Rolik	1	Latun L68	
3	02.41.00.03	Stakan	1	Ebonit	
4	02.41.00.04	Pruijina	1	Po'lat 65G	$N=6 \quad d=1$ $t=1.5$
5	02.41.00.05	Likopcha	1	Po'lat St0	
6	02.41.00.06	Ozak	1	Pressishpan	
7	02.41.00.07	Ricbag	1	Po'lat St3	
8	02.41.00.08	Qopqoq	1	Po'lat St3	
		Standart buyumlar			
9	Vint 20x4x16 GOST		2		
10	Shift 3x16 GOST		1		
	3128-70				



O'z. List	Hujjat	Imzo Sana	5A127 ikki holida	Liter.	Og'rn.	Massh.
Baiardi			aimashlab			
Tekshir.			ulug'ichi			
			Vazraqi			
			Vazraqi			

5A127 IKKI HOLATDA ALMASHLAB-ULAGICHI

Almashlab-ulagich har xil asboblarda man-bani ikki holatda almashlab ulashda ishlataladi. U korpus 1, qopqoq 8, harakatlanuvchi detallar 2, 3, 4, 7 va boshqa detallardan tuzilgan. Plast-massa korpusga L63 rusumli latundan tayyorlangan ikkita kontakt mahkamlangan.

Richag 7 chapga harakatlanganda stakan 3 o'ngga og'adi, rolik 2 esa chapga dumalaydi va ikkita chap kontaktlar tutashadi; bu vaqtida o'ng kontaktlar ochiq bo'ladi.

Almashlab-ulagichni yig'ish tartibi

Korpus 1 kontaktlarni bosim bilan plast-massani press-qolipga bosib tayyorlangan. Stakan 3 ga prujina qo'yiladi, ustidan likopcha o'rnatiladi. Keyin korpusga rolik 2 tushiriladi va unga stakan qo'yiladi.


Richag 7 ni qopqoq 8 ga kiritib, shtift 10 bosib o'rnatiladi, o'zak 6 qo'yiladi va qopqoq 8 korpusga shunday o'rnatiladiki, unda richagning sharsimon sirti likopcha 5 ning chuqlashgan qismida joylashsin. So'ng vint 9 lar burab kiritiladi.

Savollar

1. Bosh ko'rinishda qanday qirqim bajarilgan?
2. Kesim bilan qirqim orasida qanday farq bor?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Chizmada mahalliy qirqimlar qanday ko'rsatilgan?
5. M16×1 rezbaning shartli belgilanishining ma'nosi nima?
6. Chizmada o'ng kontaktlarning tutashishida tokning o'tish yo'li qanday ko'rsatilgan?
7. Detal 7 ni qanday sirtlar hosil qiladi?
8. Nima uchun kesim qo'llanadi?
9. Detal 8 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Korpus 1 ning yig'ish chizmasini, detallar 3, 5, 7, 8 ning chizmalarini, korpus 1 ning texnik rasmini chizing.



REZONATOR

Rezonator uskunadagi O'YCH tebranishni generatsiyalash va kuchaytirish ishlarida ishlatiladi. U ichida rezonator kamera joylashgan korpus 4, qopqoq 5, sangali tutkich 3, flaneslar 6,7, plunjер 1, gaykalar 2 va mahkamlash detallaridan tashkil topgan.

Rezonator kamerasi hajmining o'zgarishi plunjер 1 ni o'q bo'ylab harakatlantirib hosil qilinadi, natijada O'YCH tebranish generatsiyasi (kuchlantirish) ravon o'zgaradi. O'rnatilgan

chastotani barqarorlashtirish plunjер 1 ni qisuchi gayka 2 bilan qotirish orqali amalga oshiriladi.

Rezonatorni yig'ish tartibi

Korpus 4 ga qopqoq 5 bosib kiritiladi. Korpusning to'g'ri burchakli yon chiqig'iga flaneslar 6 va 7 o'tqaziladi va vintlar 8 bilan mahkamlanadi. Yuqoridagi yumaloq chiqiqqa sangali tutkich 3 o'tqaziladi va vintlar 9 bilan mahkamlanadi. Keyin sangali tutkichga plunjер 1 burab kiritiladi, tashqaridan esa gayka 2 qotiriladi.

Savollar




1. Chizmadagi qirqimlarni nomlang. Nima uchun bosh ko'rinishda va chapdan ko'rinishda ustiga yozilmagan?
2. $B - B$ qirqimda qaysi detallar ko'rsatilgan?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Qaysi detalda taramlash bor?
5. Nima uchun plunjер 1 qirqimda shtrixlanmagan?
6. Chizmada biriktirish o'chamlari qanday ko'rsatiladi?
7. Gayka 2 qanday vazifani bajaradi?
8. Rezba 14×1 belgilanishi nimani anglatadi?
9. Flanes 7 da nechta teshik bor?
10. Detal 3 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq



Detallar 1, 3, 4, 5 va 7 ning chizmalarini, korpus 4 ning texnik rasmini chizing.



DIAFRAGMALI ELEKTR NASOS

Elektr nasos elektron apparatlardagi suyuqliklarni haydashda ishlataladi. Nasos elektromagnit bilan komplektda o'rnatiladi, undagi tortqi yordamida mufta 6 va diafragma 3 qaytma-ilgarilanma harakat qiladi.

Elektromagnit va tortqi chizmada ko'rsatilmagan. Tortqi kallagi mufta yon tomonidagi kesikdagi maxsus teshikka kiritiladi. Diafragma ning dastlabki holati rostlagich 10 yordamida rostlanadi.

Diafragma tortilganda suyuqlilik korpus 1 ning yon teshigidan tortiladi. Diafragma qay-

tayotganda bukilib, oldin pona 2 ning yon teshiklarini berkitadi, keyin suyuqliknari kaziy teshikka itaradi.

Nasosni yig'ish tartibi


Mufta 6 diafragma 3 ga shtift 13 yordamida biriktiriladi va vint 11 bilan qotiriladi. Qopqoq 8 flanesga prujina halqa 12 bilan biriktiriladi. Korpusga pona 2, muftali diafragma, qistirma 4, prujina 9 va flanes 7 li qopqoq 8 qo'yiladi. Korpusdagi bu detallar gayka 5 va rostlagich 10 bilan mahkamlanadi, ular qopqoqqa burab kiritiladi.

Savollar

1. Chizmada mahalliy qirqimlar qanday ko'rsatigan?
2. Bosh ko'rinishda qanday qirqim bajarilgan?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. 24×2 rezbaning shartli belgilanishi nimani anglatadi?
5. $B - B$ qirqim zarurmi? Uni asoslang.
6. Detal 10 da nechta teshik bor?
7. Biriktirish va gabarit o'lchamlar qanday o'qiladi?
8. Nima uchun $B - B$ qirqimda silindrik kesuvchi sirt ishlatalgan va yoyib ko'rsatilgan?
9. Detal 3 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?

Topshiriq

Detallar 1, 2, 6 – 8 va 10 ning chizmalarini, korpus 1 ning texnik rasmini chizing.



ASINXRON MOTOR

Magnitlanmagan ichi bo'sh rotorli asinxron ikki fazali boshqariluvchi elektr motor ijjrochi motor sifatida hisoblash-yechish qurilmalarining kuzatuvchi tizimlarida ishlataladi.

Motordagi statorning ikkita o'zagi bor: ichki va tashqi, ular 1512 (ECHG) rusumli elektrotexnik po'lat listdan tayyorlangan. Tashqi o'zak korpus 1 ning ichida joylashgan, ariqchasi yo'q, statorning ichki o'zagi ariqchalariga qo'zg'atish va boshqarish chulg'ami joylashtirilgan. Rotor 8 aluminiy qotishmasidan tayyorlangan bo'lib, g'ildirak bilan ilashgan maxsus barabanda turgan o'q-shesterna 7 ga o'tqazilgan.

Panel 3 armaturalangan plastmassa buyum. Armatura bargcha bo'lib, L63 rusumli latundan tayyorlangan.

Motorni yig'ish tartibi

Korpus 1 oldindan yig'ilgan tashqi o'zak plastinalar to'plami bilan birga quyiladi. Panel 3 press-qolipda tayyorlanadi. Korpusdagi podshipniklar 6 va 13 vkladishlar 9 ga yumaloqlab qotiriladi.

Podshipniklarning tiraklari 11 tinqinlar 4 va 12 bilan berkitiladi, bir nechta nuqtasiga kernlab urib mahkamlanadi. Rotor o'q-shesterna 7 ga bosib kiritiladi. Korpusning podshipnigi 6 korpusga bosib kiritilib, vint 16 bilan qotiriladi. Korpus podshipnigi 13 qopqoq 10 ga o'rmatiladi. Keyin qopqoq 10 ning silindrik chiqig'iga trubka 17 joylanadi va uchi yumaloqlanadi. Shundan so'ng korpusga o'q rotor bilan birga qo'yiladi, qopqoq 10 panel 3 bilan birga berkitilib, vint 15 lar yordamida mahkamlanadi.




Savollar

- Chizmadagi bajarilgan qirqimlar qanday nomlanadi?
- A – A qirqimda qaysi detallar ko'rsatilgan?
- M, N va K nuqtalarining yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- GOST 2.402-68 da tishli g'ildiraklarni tasvirlash uchun qanday shartli belgilashlar qabul qilingan?
- Detal 1 da nechta teshik bor?
- Yakor va statorlar elektr chulg'amlarining ko'ndalang hamda bo'ylama qirqimlari chizmada qanday tasvirlanadi?
- O'zakning magnit o'tkazgichi ko'ndalang kesimda qanday tasvirlanadi (o'zakni tashkil qilgan listlarga nisbatan)?
- Elektr mashinalar stator va rotorlarining bo'ylama qirqimlari chizmada qanday tasvirlanadi?
- Chizmada armaturalangan detal qanday ko'rsatilgan?
- Detal 10 ning eskizi qanday bajariladi?



Topshiriq

Korpus 1 ning yig'ish chizmasi, detallar 6, 8, 10 va 13 ning chizmalari va rotor 8 ning texnik rasmini chizing.



QISQA MUDDAT ELEKTR SIGNALI BERUVCHI TUGMACHA

Tugmacha elektr zanjirlarda qisqa muddat elektr signali berishda ishlataladi. U korpus 8, seksiya 7, qopqoq 6, turkich 3, tutashtirgich 2, prujinalar 5 va 9, barg shaklidagi kontaktli klemma 1, tugmachalar 4 va vintlar 10 dan tuzilgan. Plastmassali tutashtirgich 2 ichida po'lat (St3) plastina bo'lib, uning chizig'ida mis kontaktlar joylashgan. Shunday kontaktlar klemma 1 bargiga ham mahkamlangan. Kontaktlar M3 rusumli misdan tayyorlangan.

Tugmacha 4 bosilganda harakatlanuvchi kontaktli tutashtirgich, yuqoridaq harakatlanmaydigan juft kontakt bilan tutashishni uzib, pastga harakatlanib, pastki harakatlanmaydigan

juft kontakt bilan tutashadi. Tugmacha qo'yib yuborilsa, prujinalar tutashtirgichni birinchi holatiga qaytaradi.

Tugmachani yig'ish tartibi

Klemma barglari 1 va tutashtirgich plastinkasiga kontaktlar parchinlanadi. Tutashtirgich 2 plastinani plastmassa bilan press-qolipga bosib tayyorlanadi. Klemma 1 ning bukilgan qismi korpus 8 ning yon tirqishiga o'rnatiladi va burab mahkamlanadi.


Keyin korpusga seksiya qo'yiladi hamda turkich 3 ga tutashtirgich 2, prujina 5 kiydiriladi va tugmacha 4 burab kiritiladi. Yig'ilgan bir guruh detallar prujina bilan korpus ichiga qo'yiladi, qopqoq 6 qo'yilib, vint 10 bilan qotiriladi.

Savollar

1. Bosh ko'rinishda qanday qirqim bajarilgan?
2. Chizmada mahalliy qirqimning vazifasi nima?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Gabarit o'lchamlar qanday o'qiladi?
5. Prujinalar 5 va 9 ning vazifasi nima?
6. Armaturalangan detal chizmada qanday ko'rsatilgan?
7. Vintli prujinalar ish chizmalarida qanday tasvirlanadi? Qaysi o'lchamlari ko'rsatilishi kerak?
8. Tok o'tkazish sistemasidagi detallar chizmada qanday ko'rsatilgan?
9. Prujina 9 ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?
10. Detal 8 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Tutashtirgichning yig'ish chizmasi, detallar 3, 6, 7, 8 ning chizmalari va qopqoqning texnik rasmini chizing.



ELEKTROMAGNIT

Qurilma „Minsk-32“ EHM dagi axborotlar to‘plovchi magnit tasmasining tasma tortuvchi mexanizmida ishga tushiruvchi elektromagnit sifatida qo‘llaniladi.

Elektromagnit korpusi *8* da g‘altak (poz. *5*, *6*, *19* va *20*), o‘zak *3*, qistirma *4*, kolodka *1* va boshqa detallar bor. Kolodka *1* armaturalangan plastmassa buyum. Armaturasi rezbali vtulka ko‘rinishida bo‘lib, L63 rusumli latundan tayyorlangan.

„Ishga tushirish“ signali kelganda g‘altak chulg‘amlaridan tok o‘tadi va yakor *11* tortiladi, unga bog‘langan richagni buradi va rolik bilan magnitli tasmani (richag, rolik va tasma chizmada ko‘rsatilmagan) qisadi. Magnit tasmasining siljishi ro‘y beradi. „To‘xta“ signalida elektromagnit toksizlanadi va prujina qisuvchi rolikni tasmadan oladi. Tasma to‘xtaydi. Bir

guruh detallar – halqa *9*, gayka *10*, dasta *2* va boshqa detallar – yakorning yurishini rostlashga xizmat qiladi.

Elektromagnitni yig‘ish tartibi

Kolodka *1* press-qolipda tayyorlanadi. U o‘zak *3* ning tashqi sirtiga vint *12* va shayba *17* lar yordamida mahkamlanadi. G‘altak yig‘iladi va o‘zakka o‘tzazilib, qistirma *4* bilan birga korpus *8* ga o‘rnataladi va shaybalar *16* kiydirilgan holda vintlar *14* bilan mahkamlanadi. Korpusning kichik silindrik bo‘shlig‘iga yakor o‘rnataladi, unga halqa *9* kiydiriladi va korpusga burab kiritiladi. Keyin yakorning chiqish simiga vtulka *7* kiydiriladi va halqaga tashlama gayka *10* burab kiritiladi. Tashlama gaykaga ikkita vint *15* bilan dasta *2* qotiriladi.


Yakorning yurishini rostlash uchun, vintlar *14* bo‘shatiladi, dasta *2* bilan gayka *10* ni burab yakorning belgilangan yurishiga mos holatga keltiriladi va vintlar qotiriladi.

Savollar

1. Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
2. Chizmadagi *A-A* tasvirlanish qirqimmi yoki kesim?
3. *M*, *N* va *K* nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Cho‘lg‘am ko‘ndalang va bo‘ylama qirqimlarda qanday tasvirlanadi?
5. Qaysi detallar taramlangan? Ular ish chizmalarida qanday belgilanadi?
6. Qurilmadagi armaturalangan detalni ko‘rsating. Armaturani plastmassada mahkamlashning mohiyati nima?
7. Yakor *11* qanday rostlanadi?
8. Korpus *8* da nechta teshik bor?
9. Qistirma *4* ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?
10. Detal *9* ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar *3*, *8*, *9*, *10* va *11* ning chizmalari va korpus *8* ning texnik rasmini chizing.



GAZ REDUKTORI

Reduktor vakuum uskunalarda gaz bosimini rostlash uchun mo‘ljallangan. U korpus *9*, qopqoq *10*, kallak *2*, sozlagich *1*, klapan *8* va boshqa detallardan tuzilgan. Sozlagich kavsharlangan buyum bo‘lib, shtok (L63 latun) va tirakdan ($15 \times$ po‘lat) tashkil topgan bo‘lib, ular orasida silfon joylashgan. Kallak *2* soat strelkasiga qarama-qarshi buralganda rostlagich shtoki klapanni bo‘shatadi va gaz chap shtutserdan o‘ng shtutserga o‘ta boshlaydi. Klapan bilan korpus oralig‘ining kattaligi reduktordan chiqayotgan gaz bosimining o‘zgarishiga bog‘liq. Shtok va tirakka kavsharlangan silfon korpus bilan

harakatlanuvchi detallarning jijs yopishishini ta’minlaydi. Shtokning o‘q bo‘ylab harakatlanishi sirpanuvchi shponka *13* bilan ta’minlanadi.

Reduktorni yig‘ish tartibi


Shtok ariqchasiga shponka *13* bosib kiritiladi. Keyin shtokka silfon va tirak kiritiladi. Silfon shtok va tirak bilan kavsharlab (kavshar POS 40 GOST 21931) biriktiriladi. Keyin sozlagich *1* korpusga qistirma *3* da qo‘yiladi, ustidan kallak *2* burab kiritiladi, halqa *4* o‘rnataladi, qopqoq *10* burab kiritiladi va vint *11* bilan qotiriladi. Korpusning rezbali yon chiziqlariga rezina qistirma *5* va shtutser *6* o‘rnataladi va gayka *7* bilan qisib qo‘yiladi.

Savollar

1. Bosh ko‘rinishda qanday qirqim bajarilgan?
2. Nima sababdan chiqarish elementlari ko‘rsatilgan?
3. *M*, *N* va *K* nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Chizmada mahalliy qirqimlar qanday ko‘rsatilgan?
5. Yig‘ish chizmalaridagi pozitsiyalashni GOST 2. 109-73 qanday tartibda joylashtirishni ko‘zda tutadi?
6. Yig‘ish chizmalariga qanday o‘lchamlar qo‘yiladi?
7. Chizmada chap rezba qanday belgilanadi?
8. Chizmada zichlagich detallari qanday ko‘rsatilgan?
9. Chizmada kavsharlash shartli belgilash orqali qanday ko‘rsatiladi?
10. Klapan *8* ni almashtirish uchun qanday operatsiyalar qilinishi kerak?
11. Detal *9* ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Sozlagich *1* ning yig‘ish chizmasi, detallar *2*, *6*, *7*, *9* va *10* ning chizmalari va qopqoqning texnik rasmini chizing.



SINXROGENERATOR

Sinxrogenerator sinxrosignalalar hosil qiladi, bu signallar bo'yicha transport va teshuvchi mexanizmlarning elektromagnitlari ulanadi va o'chiriladi hamda EHM perforatoridagi berilgan perfokartalarni hisoblaydi. Sinxrogenerator doimiy magnit 6 va rotor 9 dan tuzilgan bo'lib, u 25 ayl/s chastotada uzluksiz aylanadigan transport mexanizmining kulachokli valiga mahkamlangan. Stator 3 19 ta qutbga ega bo'lib, ularga g'altaklar, panellar 1 va boshqa detallar mahkamlangan. Panel 1 tekstolit plata bo'lib, unda 19 ta kontakt va 19 ta yarimbo'sh tanali parchinmixlar bor, ularga g'altakning simlari kavsharlanadi.

Kontaktning materiali—L63 rusumli latun. Panelning tashqi tomonidan xuddi shunday bargcha parchinmix bilan ulangan. Burchak

holatni rostlashda rotor 9 mahkamlash ariqchasi buralishi mumkin. G'altak 2 plastmassa asos va PEB-10,2 GOST 7019-71 simdan iborat.

Rotor statorning qutbidan o'tayotganda doi-miy magnit bilan magnit oqimi hosil qilinadi va g'altakda EYK induktivlanadi, elektr toki hosil bo'ladi, u boshqarish tizimiga keladi.

Sinxrogeneratorni yig'ish tartibi


Panel 1 ning teshiklariga kontaktlar, parchinmixlar, bargchalar qo'yilib, teshik yumaloqlab mahkamlanadi. Stator 3 qutblariga g'altak 2 kiydiriladi. Kulachokli val 5 ga magnit 6, halqa 7 va rotorlar 9 biriktiriladi. Bu detallarga shaybalar 12 va 13 kiydiriladi va vint 11 bilan mahkamlanib, korpusning markaziy teshigiga qo'yiladi. Qopqoq 4 va stator 3 bayonetli birikma qilib biriktiriladi.

Savollar

1. Bosh ko'rinishda qanday qirqim bajarilgan?
2. Chizmada mahalliy qirqim qanday ko'rsatilgan?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Chulg'am ko'ndalang qirqimda qanday tasvirlanadi?
5. Chizmada tasvirlangan kesimni ko'rsating. Qirqim bilan kesimning qanday farqi bor?
6. Izolatsiya materiallaridan tayyorlangan detallar qanday tasvirlangan?
7. Detal 3 da nechta teshik bor?
8. O'rnatish o'lchamlari qanday o'qiladi?
9. Rotor 9 ning burchak holati qanday rostlanadi?
10. Detal 3 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Panelning yig'ish chizmasini va detallar 3 – 9 ning chizmalarini chizing.
Detal 5 ning aksonometrik proyeksiyasini yasang.



ALMASHLAB-ULAGICH

Kulachokli tipdag'i almashlab-ulagich tizimlardagi elektr zanjirda, avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarda va boshqa avtomatik tizimlarda ishlataladi. Korpusga kommutativ tizimlar — kontaktlar 2 va kontakt burchakligi 8 ulanadi. Baraban 11 ning aylanishidan kulachokning chiqqlari mos kontaktlar 2 ni siqadi. Natiyada ular kontakt ignasini ham qisadi va bajaruvchi apparatlardan buyruq qabul qiladi. Har bir-ikki juft kontakti tutashtirish maxsus qurilma-rostlagich bilan qayd qilinadi. Uning tarkibida baraban o'qiga bikr mahkamlangan xrapovik 4, dasta 1 va prujina 10 bor. Dasta 1 vilka va rolikdan iborat. Bu detallar tegishlichcha St 35 va 40 rusumli po'latdan ishlangan. Kontakt 2 prujina va kontaktdan iborat. Prujina BrB2 rusumli bronzadan, kontakt esa Sr 999 rusumli kumushdan tayyorlangan.

Almashlab-ulagichni yig'ish tartibi


Dasta 1 ning markaziy teshigiga rolik kiydirilgan o'q o'rnatiladi va ikki tomonidan parchinlanadi. Dasta 1 rostlagich korpusi bilan rostlagich o'qi 7 vositasida sharnirli biriktiriladi, uchi esa parchinlanadi. Korpus 9 ichiga vtulka 6 qo'yiladi. Unga rostlagich korpus o'rnatiladi va vtulka parchinlanadi. Keyin o'q 3 ga xrapovik 4 o'tqaziladi va 4 ta nuqtasidan kernlab mahkamlanadi. Shundan so'ng o'q vtulka 6 va baraban 11 dan o'tkazilib, korpus 9 ga o'rnatiladi. Baraban o'qqa vint 13 bilan mahkamlanadi. Dasta 1 va rostlagich korpusi teshiklariga prujina 10 o'rnatiladi. Burchakliklar 8 korpus 9 ga, korpusning maxsus o'yilalariga kiritilgan kvadrat gayka 12 ga vint 15 ni burab kiritib mahkamlanadi. Kontaktning prujinalari kontakt bilan parchinlab biriktiriladi va korpusga vintlar 14 va korpusning yuqori yonidagi chuqurchalariga qo'yilgan gaykalar 16 bilan mahkamlanadi.

Savollar

- Chizmadagi qirqimlar qanday nomlanadi?
- Nima uchun detal 9 plastmassadan tayyorlangan?
- M, N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- Spetsifikatsiya nimaga xizmat qiladi?
- Chizmada gabarit o'lchamlar qanday ko'rsatilgan?
- Detal 8 ning nechta teshigi bor?
- Chizmada tok o'tkazuvchi detallar qanday ko'rsatilgan?
- Cho'ziluvchi prujinalar detalning ish chizmalarida qanday tasvirlanadi? Qanday o'lchamlar ko'rsatilishi kerak?
- GOST 2.109-73 bo'yicha yig'ish chizmasida qanday tartibda pozitsiya raqamlari qo'yiladi?
- Detal 4 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 3, 5, 8, 9 va 11 ning chizmalarini, korpus 9 ning texnik rasmini chizing.



SAQLAGICH

Saqlagich yarimavtomatikadagi integral sxemalarni tayyorlash uchun kelayotgan kremniyli plastinalarni kuchli ta'sir etuvchi kislota (PBXO-PK) bilan tebranishli ximiyaviy ishlov berishda ishlataladi. Saqlagich qurilmani tok kuchlanishidan himoyalash uchun mo'ljallangan. U hajmli saqlagich 1, tutkich 6, uyalar 5, korpus 2, klemmalar va boshqa detallardan tashkil topgan.

Tutkich tekis yuzasi bilan korpusdagi saqlagichni berkitib turadi, halqasimon chiqig'i esa saqlagichni tez almashtirish imkonini beradi. Saqlagich plastmassa trubka, unga kavsharlangan sim, ikkita shayba va ikkita kontaktli qal-

poqdan iborat. Shaybalar va qalpoqlar L63 rusumli latundan tayyorlangan. Uchqun chiqishi natijasida saqlagich ipi kuyishining oldini olish maqsadida saqlagichga mayda zarrachali qum solinadi.

Saqlagichni yig'ish tartibi


Saqlagichning korpusiga yon tomoniga shayba kavsharlangan ip qo'yiladi, qum solinadi va ipning boshqa uchiga ikkinchi shayba kavsharlanadi. Keyin saqlagich korpusining uchlariqa qalpoqcha kiydirilib juvalanadi. Yig'ilgan saqlagich 1 tutkich 6 ga o'rnatiladi. Keyin korpus 2 ga navbatli bilan plastinalar 3, uyalar 5, klemmalar qo'yiladi va ular vint 7 bilan biriktiriladi. Uya 5 ning ustidan tutkich 6 qo'yiladi.

Savollar

- Chizmadagi ko'rinishlar qanday nomlanadi?
- B – B kesuvchi tekislik qaysi detallar orqali o'tadi?
- M, N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- Qaysi detallar kavsharlangan?
- Chizmada tok o'tkazuvchi detallar qanday ko'rsatilgan?
- Qurilma blok shitiga qanday mahkamlanadi?
- Saqlagichni almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajariladi?
- Qanday hollarda yarimko'rinish va yarimqirqim birgalikda tasvirlanadi?
- Saqlagich qirqimida qanday materiallar tasvirlangan?
- Detal 2 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 2 – 6 ning chizmalarini va tutkich 6 ning texnik rasmini chizing.



BOSIM ROSTLAGICH

Bosim rostagich pnevmotizmlardagi havo bosimini doimiy ($1,2 \text{ kgs/sm}^2$) avtomatik holatda ushlab turish uchun ishlataladi va membrana turidagi bir kamerali reduktor ko'rinishiga ega.

Rostlagich korpus sig'imiga burab mahkamalanadi, bunda doimiy bosim ushlab turiladi. Havo shtutser 15 orqali keladi. Havo bosimini rostlash diafragma 14 ga ta'sir etuvchi (prujina ning kuchayishi va siqlgan havo bosimi) kuchlarning tengligini ushlab turish asosida qurilgan. Sig'imdagisi bosim o'rnatilgan me'yordan kamyib ketsa, prujinaning kuchlanishi, qisilgan havo bosimidan ortib, diafragma 14 ga ta'sir etadi va o'ngga suriladi. Natijada turtkich 11 klapan 5 ni ochadi. Bunda shtutser 15 dan kelayotgan siqlgan havo klapani 17 ni ochadi va korpusdagi yettita silindr kanallar orqali sig'imiga keladi va $1,2 \text{ kgs/sm}^2$ gacha bosim hosil qiladi. Bosimning ko'tarilishi to'xtaydi, diafragma 14 prujinaning

kuchlanishini bosib o'tib, turtkich 11 ni o'ngga suradi. Bu holda klapan 5 bekiladi, ya'ni sig'imiga havo kelishi to'xtaydi.

Rostlagichni yig'ish tartibi

Turtkich 11 ning rezbal qismiga diafragma 14, likopcha 12, shayba 23 kiydiriladi va gayka 22 burab qotiriladi. Hosil qilingan birikma va halqa 13 korpus 1 ga qo'yiladi. Keyin halqa 8 tirak 9 va prujina 10 bilan birgalikda korpusga burab kiritiladi.

Shtutser 15 klapan 17, rezinali halqa 16 va prujinalar 19 bilan birgalikda korpusga burab kiritiladi. Qistirma 18 shtutser bilan korpusning jips birikishini ta'minlaydi.


Korpusning kichik bo'shliq qismiga klapan 5, konus 6, prujina 4 qo'yiladi va tiqin 2 zichlagich halqa 3 bilan burab qotiriladi. Tiqin o'rnatish vinti 21 bilan qotirib qo'yiladi. Asbob bolt 20 bilan rostlanadi.

Savollar

1. Bosh ko'rinishda qanday qirqim bajarilgan?
2. Chizmada mahalliy qirqimlar qanday ko'rsatilgan?
3. M , N va K nuqtalarining yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Nima uchun detallar 2, 6, 11, 20 va 22 shtrixlanmasdan ko'rsatilgan?
5. Rezba M20×1,5 ning shartli belgilanishining ma'nosi nima?
6. Qaysi detallarga rezbalar ochilgan?
7. Asbobning jipsligini qanday detallar ta'minlaydi?
8. Chizmada chiqish elementi qanday ko'rsatilgan?
9. Diafragmani almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?
10. Detal 8 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 1, 8, 9, 15 va 17 ning chizmalarini, detal 17 ning texnik rasmini chizing.



TO'XTATISH TUGMACHASI

To'xtatish tugmachasi ishga tushirish uskunasining bir qismi bo'lib, elektr mashinalari yuritmasi zanjirini ajratish uchun xizmat qiladi. U korpus 3, tugmacha 2, tutashtirgich 4, tirak 1, tok uzatkich 7, kontakt prujina 8 va boshqa detallardan tuzilgan. Tirak 1 va tugmacha 2 armaturalangan plastmassa buyumlardir. Tirakdagi armatura rezbali vtulka ko'rinishida va tugmachadagi tutkich 20 rusumli po'latdan tayyorlangan. Tugmacha 2 bosilganda zanjir uzeladi. Prujinalar 5 va 6 tugmachani dastlabki vaziyatiga keltiradi.

Tugmachani yig'ish tartibi

Tugmacha 2 va tirak 1 press-qolipda tayyorlanadi. Korpus 3 ga tok uzatuvchi 7 va kontaktli prujina 8 yarimbo'sh parchinmix 10 yordamida mahkamlanadi. Keyin tugmacha 2 ga prujinalar 5 va 6 kiydirilgan holda korpus 3 ning markaziy teshigiga qo'yiladi. Korpus ostidan tutashtirgich 4 va tirak 1 o'rnatiladi, rezbali vtulkaga tugmacha 2 turkichi burab quotiriladi.

Tok uzatkich 7 ning rezbali teshiklariga vintlar 9 burab kirgiziladi, ular elektr zanjiri simlarining uchlarini mahkamlaydi.



Savollar

- Chizmada qanday qirqimlar bajarilgan?
- Qanday hollarda yarimko'rinish va yarimqirqim birga tasvirlanishiga ruxsat etiladi?
- Qurilmadagi armaturalangan detallarni ko'rsating. Bunday detallarning plastmassada birikishining mustahkamligi nima bilan ta'minlanadi?
- M , N va K nuqtalarining yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
- Qaysi detallarda taramlash mavjud?
- Chizmada tok o'tkazuvchi sistema detallari qanday ko'rsatilgan?
- Prujina 5 ning vazifasi nimadan iborat?
- Yig'ish chizmasida qanday o'chamlar qo'yiladi?
- Chizmada kesuvchi tekislikning joylashishi qanday chiziq bilan ko'rsatiladi?
- Detal 3 ning eskizi qanday bajariladi?


Topshiriq

Tirak 1, tugmacha 2, nostandard detallarning chizmalari va tugmaching texnik rasmini chizing.

85



Qopqoq ko'satilmaqan



№	Belliştiishi	Nomlanishi	Soni	Material	Esiama	Standart buyumilar
1	02.53.01.00YB	Yigma binlikar Cheng'akki gildarik	1	m=0.5 z=94	Vint M3x12 GOST 17473-72	6
2	02.53.00.02	Korpus	1	Qatışma AL9	17473-72 GOST Gaya M4 GOST 5915-70	4
3	02.53.00.03	Podshipnik aqqag'i	1	Po'lal 20	Shavta 4 GOST 10450-68	4
4	02.53.00.04	Moyaqtargich	1	Po'lal 45	Shift 10x8 GOST 3128-70	2
5	02.53.00.05	Halka	1	Latun L63	Shift 2x16 GOST 3129-70	1
6	02.53.00.06	Qistitma	2	Poronit	Halqa SG 10-6-2 GOST 6308-71	1
7	02.53.00.07	Vtulka	2	Po'lal 20	Halqa SG 12-9-2 GOST 6308-71	2
8	02.53.00.08	Qistitma	2	Poronit		
9	02.53.00.09	Qapaoq	1	Qatışma AL9		
10	02.53.00.10	Podshipnik aqqag'i	1	Po'lal 20		
11	02.53.00.11	Val-chenyak	1	Po'lal 45 m=0.5 z=1	02.53.00.00 YCH	Lier. Oqigt. Massh
12	02.53.00.12	Tıqın	1	Qatışma AL3	Qızılıma Balard Təkənir	Reduktur
13	02.53.00.13	Qistitma	2	Latun L63		
14	02.53.00.14	Valkı	2	Po'lal 45		
15	02.53.00.15	Sırpantıuchi podshipnik	2	Bloza Br AJ9-4		

Vint 1
Vataqdar 1

REDUKTOR

Bir pog'onali chervyakli reduktor sanash-hisoblash qurilmalari ish mexanizmlarining yuritmalarida ishlataladi.

Reduktoring uzatish soni $U=94$. Yetakchi element bo'lib val-chervyak 11 hisoblanadi. U ikkita zoldirli podshipnik 24 larga o'rnatilgan. Chervyakli g'ildirak gardishi plastmassadan va gupchagi 20 rusumli po'latdan ishlangan. G'ildirak valigi 14 ikkita sirpanuvchi podshipniklar 15 ga o'rnatilgan. Chervyak tishlari va chervyakli g'ildirak korpus reduktorlariga quyilgan moy orqali moylanadi. Moy qaytargich 4, qistirma 6, namatlari halqalar 22 va 23 reduktoring ichki bo'shliqlariga kir va changlarning tushishidan himoyalaydi.

Reduktorni yig'ish tartibi


Chervyakli g'ildirakning gardishi gupchagiga 3×8 parchinmix bilan GOST 10450-68 bo'yicha biriktiriladi. Gupchak valik 14 ga o'tqazilib, shtiftlar 21 bilan mahkamlanadi. Qopqoq 9 ga tiqin qo'yilib, yumaloqlanadi. Sirpanuvchi podshipnik 15 ga namat halqa 23 o'rnatilib, shtiftlar bosib kiritiladi. Korpusga vtulkalar 7 bosib kiritiladi. Val-chervyak 11 ga moy qaytargich 4, zoldirli podshipniklar 24 o'tqaziladi va val korpusga o'rnatiladi. Chervyak valiga halqa 5, qistirma 6 va podshipnik qopqog'i 3 kiydiriladi va vint 16 lar bilan qotiriladi. Korpusning boshqa tomonidan vtulka 7 ga qistirma 6 qo'yilib, podshipnik qopqog'i 10 vint 16 lar bilan qotiriladi. Keyin valikka sirpanuvchi podshipniklar o'tqaziladi va valik korpus 2 ga o'rnatiladi. Keyin qopqoq 9 qistirma 8 bilan birgalikda korpus 2 ga vintlar 17, gaykalar 18 va shaybalar bilan biriktiriladi.

Savollar

1. Chizmadagi qirqimlar qanday nomланади?
2. Mahalliy qirqim nima maqsadda tasvirlанади?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topilади?
4. Zoldirli podshipniklar qanday shartli tasvirlанади?
5. Chizmada qanday qilib silindrik chervyakli ilashmalar shartli tasvirlанади?
6. O'rnatish o'lchamlari qanday o'qilади?
7. Metallmas detallar qanday nomланади?
8. Detal 24 ni o'rnatish va mahkamlash uchun qanday operatsiyalar qilinishi kerak?
9. Detal 3 ning nechta teshigi bor?
10. Detal 2 ning eskizi qanday bajarilади?

Topshiriq

Detallar 2, 3, 9, 11, chervyakli g'ildirak 1 ning chizmalari va qopqoq-ning texnik rasmini chizing.



„MINSK-32“ EHM NING REDUKTORI

Bir pog'onali chervyakli reduktor „Minsk-32“ EHM dagi tasma tortish mexanizmidagi yetaklovchi rolik uzatmasi vazifasini o'taydi.

Val-chervyak 4 yetaklovchi element hisoblanadi. Yetaklovchi valning aylanish chastotasi 3000 ayl/min. Val-chervyak 4 ikkita podshipnik 17ga o'rnatilgan. Reduktoring uzatish soni $u = 5,75$.

Val-chervyak ikkita zoldirli podshipnik 17 ga o'rnatilgan. Chervyakli g'ildirak 1 ikkita podshipnikka tayanuvchi valik 10 li segmentli shponka 15 bilan biriktirilgan. Reduktoring ichki qismiga kir va chang tushmasligi uchun namat halqa 16 bilan muhofazalangan. Korpusdagi darcha yordamida ilashish kontakti rostlanadi.

Chervyak tishlari moyga botish hisobiga moyланади. Podshipniklar texnik vazelin bilan moyланади.

Reduktorni yig'ish tartibi

Gupchag 11 chervyakli g'ildirak 1 ga presslab kiritiladi va valik 10ga shponka 15 bilan biriktiriladi.

Korpus 2 ning qopqoq 9 va 5 lari tomonidan ikkita podshipnik 17bosib kiritiladi. Keyin qistirma 6, qopqoq 9 qo'yiladi va vint 14 bilan mahkamlanadi.


Val-chervyak 4 chiqiqlariga yana ikkita podshipnik 17 va valik 10 o'rnatiladi, ularning sapfalari navbatma-navbat bosib o'rnatiladi. Keyin qistirmalar 6 va 13 qo'yiladi va mos vint 14 lar bilan oldin qopqoqlar 7 va 12, keyin flaneslar 8 mahkamlanadi. Korpusdagi ko'rish teshigi planka 3 bilan berkitiladi va vint 14 bilan mahkamlanadi.

Savollar

1. Chizmadagi qirqimlar qanday o'qiladi?
2. Chizmadagi qaysi chiziqlar kesuvchi tekisliklarni ko'rsatadi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Chizmada silindrik chervyak ilashmasi qanday shartli tasvirlanadi?
5. Yig'ish chizmasidagi pozitsiyalarning qanday tartibi GOST 2.109-73 da nazarda tutilgan?
6. Detal 7 ning nechta teshigi bor?
7. Qaysi detal taramlangan?
8. Reduktor ichiga kir tushmasligini qaysi detal muhofazalaydi?
9. Detal 4 ni chiqarib olish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?

Topshiriq

Detallar 2, 7, 10, 11 va 12 ning chizmalari va korpus 2 ning texnik rasmini chizing.



SIGNAL LAMPASI

Signal lampasi turli-tuman radioelektron apparatlarda yorug'lik signali uzatish uchun ishlataladi.

Kuchlanish ustki va pastki chiqish simlariga keltiriladi. Lampaning detal 6 bilan doimiy kontakti prujina 8 va shtok 5 orqali ta'minlanadi.

Lampadan kelayotgan yorug'lik signali detallar 10 va 11 dagi uchburchakli teshiklardan o'tadi. Agar kallak 11 soat strelkasiga qarama-qarshi buralsa, holat „Yopiq“ bo'ladi (A—A qirqimni ko'ring), unda detallar 10 va 11 dagi uchburchak teshiklar mos kelmaydi va yorug'lik detallar 10 va 11 ning o'qdosh teshigidan o'tib turadi. Prujinali halqa 13 o'z-o'zidan kallak 11 ning bo'shab ketmasligini ta'minlaydi.

Lampani yig'ish tartibi

Chiqish simi 1 li patron patronga yuqori chiqish simini kavshar POS40 GOST 21931-76 bilan kavsharlab tayyorlanadi. Korpusdagi teshikka shaybalar 4, 3 kiydirilgan holda vtulka 7 va chiqish simli patron qo'yiladi. Boshqa tomondan vtulkaga 7 pastki chiqish simi 6 kiydiriladi va vtulka uchi to'mtoqlanadi. Vtulka 7 ga prujina 8 kiydirilgan holda shtok 5 qo'yiladi. Shtokning o'ng tomoni to'mtoqlanadi, keyin lampa qo'yiladi va uchlik burab kiritiladi.


Kallak 11 ga linza 12 o'rnatiladi va kallak 11 panjachasi bilan siqib qo'yiladi. Keyin uchlik 10 ariqchasi ichiga tormozlanuvchi halqa 13, uchlik 10 ga kallak 11 kiydiriladi va shtift 14 bosib kiritiladi. Uchlik 9 ga uchlik 10 burab kiritiladi.

Savollar

1. GOST 2.305-68 bo'yicha tasvirlangan chizmalar qanday nomlanadi?
2. Qaysi qirqim chap tomondan ko'rinish qilib tasvirlangan?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Kesuvchi A — A tekislik qaysi detallardan o'tadi?
5. Lampaning gabarit o'lchamlari qanday o'qiladi?
6. Qaysi detallar kavsharlangan?
7. Rezba M $20 \times 1,5$ shartli belgilanishi nimani anglatadi?
8. Lampani almashtirish uchun qanday operatsiyalar bajarilishi kerak?
9. Qanday hollarda yarimko'rinish va yarimqirqim birga ko'rsatiladi?
10. Detal 10 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Detallar 2, 5, 9, 10, 11 va 12 ning chizmasini, detal 2 ning aksonometrik proyeksiyasini chizing.



CHEKLOVCHI UZGICH MEXANIZMI

Bu mexanizm avtomatik sistema qurilmalari ning zanjiridagi elektr kontaktlarni tutashtirish va uzishga mo‘ljallangan. U korpus 3, turtkich 4, tutashtirish korpusi 5, prujinalar 6, 8, tutash-tirgichlar 2, klemmalar 1 va boshqa detallardan tuzilgan.

Harakatlanayotgan mexanizmga mexanik ta’sir natijasida tutashtirish korpusi 5 bilan turtkich 4 ochiq kontaktlarni yopadi yoki yopiq kontaktlarni ochadi. Turtkichga bosish to‘xta-tilgandan so‘ng ulovchi va boshqa harakat-
lanuvchi detallar prujinalar 6 va 8 ta’sirida

o‘zlarining dastlabki vaziyatiga qaytadi. Korpus 3 uchta bolt yordamida cheklovchi uzgich tashqi korpusiga qotiriladi.

Mexanizmni yig‘ish tartibi

Tutashtirgichlar va klemmalarga kontaktli nuqtali payvandlash yordamida kumush kontaktlar kavsharlab ularadi. Klemmalar korpus 3 ga o‘rnataladi va vintlar yordamida qotiriladi. Korpus 5 ga tutashtirgichlar 2, cheklagichlar 7, prujina 6 o‘rnataladi va korpus 5 prujina 8 bilan birgalikda korpus 3 ning chuqur ariqchasiga o‘rnataladi.

Savollar

1. Chizmadagi qirqimlar qanday nomlanadi?
2. Kesuvchi tekislik $B-B$ qaysi detallardan o‘tadi?
3. M , N va K nuqtalarning yetishmayotgan proyeksiyalari qanday topiladi?
4. Qaysi detallar o‘zaro payvandlab biriktirilgan?
5. Chizmada tok o‘tkazuvchi sistema detallari qanday ko‘rsatilgan?
6. Chizmada keltirilgan payvandlashning shartli tasvirlanishi nimani anglatadi?
7. Chizmadagi biriktirish o‘lchamlari qanday o‘qiladi?
8. Vintsimon prujina ish chizmalarida qanday tasvirlanadi? Qaysi o‘lchamlarini ko‘rsatish lozim?
9. Nima uchun detallar 4 va 9 qirqimda shtrixlanmasdan ko‘rsatilgan?
10. Detal 3 ning eskizi qanday bajariladi?

Topshiriq

Ulagichning yig‘ish chizmasini, detallar 3, 4, 5 va 7 ning chizmalarini, detal 5 ning texnik rasmini chizing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva U. Chizma geometriya va chizmachilik asoslari. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T., „O‘zbekiston“, 1999.
2. Qirg‘izboev Y. va boshq. Mashinasozlik chizmachiligi. T., „O‘qituvchi“, 1981.
3. Osipov V. A., Kozel V. I. Альбом чертежей сборочных единиц для чтения и деталирования. Учебное пособие для учащихся средне-специального образования. М., „Высшая школа“, 1980.
4. Богданов В. Н. и др. „Справочное руководство по черчению“. М., „Высшая школа“, 1989.
5. To‘xtayev A., Abramyan Y. P. Injenerlik grafikasidan spravochnik. Oliy texnika o‘quv yurtlari talabalar uchun o‘quv qo‘llanma. T., „O‘qituvchi“, 1994.

MUNDARIJA

Kirish	3
Rolik	5
Saqlagich tutkichi	7
Reostat	9
O'tkazuvchi	11
Kontakt	13
Sopol kondensator	15
Antennaning kirish uchini kalibrlash uchun moslama	17
Gaz klapani	19
Markazdan qochma rostlagich	21
Havo klapani	23
Yutgich	25
Uzatuvchi pichoq	27
Elektromagnitli klapan	29
Kichik ko'zgu	31
Kontakt kolodka	33
To'lqinuzatkich seksiyasi	35
Qayta ishga tushiruvchi klapan	37
Filtr	39
Vakuum datchigi	41
Fonar	43
Obyektivning ostki tubusi	45
Induktiv g'altak	47
Yuqori chastotali ajratgich	49
Qamrab tutkich	51
Support sistema	53
Integral sxemani sinash uchun kontakt qurilma	55
Perforator	57
Ulab-uzgich	59
Patron	61
Qisuvchi rolik	63
Elektromagnitli tormoz	65
Kontakt uyasi	67
Yuritmali to'lqinuzatkich	69
Blankalar datchigi	71
To'lqinuzatkich-koaksiiali o'tish	73
Yuqori chastotali ajratgich rozetkasi	75
Tranzistorni sinash uchun kolodka	77
Elektromagnit	79
Kasseta yuritmasining kaliti	81

D2-31 attenuuatori	83
5A127 ikki holatda almashlab-ulagichi	85
Rezonator	87
Diafragmali elektr nasos	89
Asinxron motor	91
Qisqa muddat elektr signali beruvchi tugmacha	93
Elektromagnit	95
Gaz reduktori	97
Sinxrogenerator	99
Almashlab-ulagich	101
Saqlagich	103
Bosim rostlagich	105
To'xtatish tugmachasi	107
Reduktor	109
„Minsk-32“ EHM ning reduktori	111
Signal lampasi	113
Cheklovchi uzgich mexanizmi	115
Foydalaniilgan adabiyotlar	116

KOMIL XAMITOVICH MADUMAROV,

ABDUQODIR ABDURAHMONOVICH NORQULOV

TEXNIK CHIZMACHILIK

YIG'MA BIRLIK CHIZMALARINI O'QISH VA DETALLASHTIRISH

UCHUN CHIZMALAR ALBOMI

9- nashri

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2017*

Muharrirlar: *B. Akbarov, N. G'oipov*

Badiiy muharrirlar: *D. Mulla-Axunov, B. Ibragimov*

Texn. muharrir *S. Nabiyeva*

Kompyuterda sahifalovchilar: *K. Hamidullayeva, M. Salimova*

Musahihh *M. Ibrohimova*

Nashriyot litsenziysi AI №291. 04.11.2016. Original-maketedan bosishga
ruxsat etildi 14.11.2017. Bichimi $84 \times 108^1/_{16}$. Kegli 11 shponli. Tayms garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozsi. Shartli b.t. 12,60.

Bosma t. 7,5. Hisob nashr t. 11,5. Adadi 1197 nusxa. Buyurtma №666.

Original-maket O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa
ijodiy uyida tayyorlandi. Toshkent — 206, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1- uy.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,
«Oq-Ota» QFY, Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Madumarov K.X.

M 14

Texnik chizmachilik : Yig‘ma birlik chizmalarini o‘qish va detallashtirish uchun chizmalar albomi: kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma / **K. X. Madumarov, A. A. Norqulov**; O‘zR oliv va orta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. 9- nashri. Toshkent: „O‘qituvchi“ NMIU, 2017. — 120 b.

I. Norqulov, A. A.

ISBN 978-9943-22-154-3

**UO‘K : 74(075)
KBK 30.11ya722**